

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI
A.QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI



ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI
A.QODIRIY NOMIDAGI
ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ
ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ

BOSHLANG'ICH TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

«Himoya qilishga ruxsat beraman»
Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi
fakulteti dekani

_____ dots. Rabbimov M.T.

«___» _____ 2013 y.

5141600 – boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun

**“BOSHLANG'ICH SINFLARDA GAPNING BOSH BO'LAKLARINI
O'RGATISH” mavzusida bajarilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi
fakulteti IV kurs talabasi Rasulova Gulmira

Ilmiy rahbar: Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va
amaliyoti kafedrasi katta
o'qituvchisi, fil.f.n. Ibragimova F.E.

Ishni himoyaga tavsiya etaman: _____
(imzo) (ilmiy rahbar ismi va sharifi)

BMI «BTN va A » kafedrasi yig'ilishining qarori bilan
(Qaror № , 2013 y.) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____
(ismi va sharifi) (imzo)

JIZZAX– 2013

MAVZU: BOSHLANG'ICH SINFLARDA GAPNING BOSH BO'LAKLARINI O'RGATISH

REJA:

KIRISH

I. BOB. O'ZBEK TILI SINTAKSISIDA GAP BO'LAKLARINING SHAKLIY VA MAZMUNYIY TUZILISHI.....

1.1. O'ZBEK TILI GAP QURILISHIDA BOSH BO'LAKLARNING O'RNI VA O'RGANILISHI HAQIDA.....

1.2. GAP BO'LAKLARINING DARAJALANISHI.....

II. BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA GAPNING BOSH BO'LAKLARINI O'RGATISH.....

2.1. EGANING BELGILI VA BELGISIZ QO'LLANISHI.....

2.2. KESIMNING QO'LLANISHI VA IFODALANISHI.....

2.3. EGA VA KESIMNI BOSHLANG'ICH SINFDAN O'QITISH USLUBIYATI.....

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Jamiyat hayotida ro'y bergan tub o'zgarishlar barcha sohalar kabi ilmu fanning tubdan o'zgarishi, yangicha rivoj topishiga sabab bo'ldi.

O'zbekistonning o'z istiqloliga erishishi o'zbek til-shunosligining rivoji va uning taraqqiyoti yo'llarini belgilab berishda, o'rganishda yangi davr ochdi. Prezidentimiz Islom Karimov «Har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir», - degan edilar.

Shu bois mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish millat ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan yo'nalashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

Bizning tanlagan malakaviy bitiruv ishimizning mazmuni ham yuqoridagi fikrlarga asoslanib boshlang'ich sinflarga bosh bo'laklarni o'rgatish usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Har qanday muloqotning asosida to'g'ri tuzilgan nutq yotadi. Nutqni to'g'ri tuzush uchun uchun esa o'quvchilardan ma'lum bilim, ko'nikma va malakalar talab etiladi. Nutq ishtirokchilarining to'g'ri nutq tuzish malakalarini boshlang'ich sinflardan shakllantira borish lozim, bu jarayonda sintaksisning o'rni katta albatta. Chunki fikr ifodalovchi birlik bu gap hisoblanadi. Gap esa albatta gap bo'laklaridan tuziladi. Gap bo'laklarini to'g'ri ishlata bilish muammosi bugungi ona tili ta'limining diqqat qaratilishi lozim masalalaridan biri hisoblanadi.

MBIning maqsad va vazifalari. Malakaviy bitiruv ishidan ko'zlangan maqsad boshlang'ich sinf o'quvchilariga grammatik tushunchalrni o'rgatish. Shu jarayonda sintaksisga oid bilimlarni gap va uning bo'laklari tushunchasini, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni o'rgatish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq

qilishdan iborat. Ana shu maqsadni amalga oshirish uchun magistrlik dissertatsiyasi oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- o'zbek tili sintaksisida gap bo'laklarining shakliy tuzilishini o'rganib chiqish;
- o'zbek tili sintaksisida gap bo'laklarining mazmuniy tuzilishini tahlil qilish;
- o'zbek tili gap qurilishida bosh bo'laklarning o'rni va o'rganilishini tahlil qilish;
- gap bo'laklarining darajalanishi haqidagi ma'lumotlar;
- boshlang'ich sinflarda gapning bosh bo'laklarini o'rgatish usullarini ishlab chiqish;
- boshlang'ich sinflarda eganing belgili va belgisiz qo'llanishini o'rgatish usullarini ishlab chiqish;
- boshlang'ich sinflarda kesimning qo'llanishini o'rgatish usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqot predmeti. boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborotli – kasbiy tayyorgarligini ta'minlashning texnologik tizimi, shart – sharoitlari, o'ziga xos xususiyatlari va samaradorligi.

Ilmiy yangligi: Gapning bosh bo'laklarini boshlang'ich sinflarda yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'rgatish usullarini ishlab chiqish va amaliyotda sinab xulosalar chiqarish muammosi ishning yangiligini belgilaydi.

Tadqiqot metodlari. Ishda asosan tavsifiy, qisman qiyosiy, lingvopoetik, uslubiy, ba'zi hollarda statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asoslari. Tadqiqotning metodologik asoslarini Respublikamiz Prezidentining til haqidagi qarashlari, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", "Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi, Boshlang'ich ta'lim standartlari" tashkil qiladi. Shuningdek, nazariy ma'lumotlarni G'.A.Abdurahmonov, Sh.Sh Shoabdurahmonov, A.A.Xojievlar muallifligidagi «O'zbek tili grammatikasi» II qism, Sintaksis, «Fan» nashriyoti. Toshkent, 1976 yil; N.Mahmudov, A.Nurmonov «O'zbek tilining nazariy grammatikasi». Toshkent, «O'qituvchi» nashriyoti, 1995 yil; B.O'rinboev, «Hozirgi o'zbek adabiy tili so'z birikmasi va sodda gap sintaksisidan ma'ruzalar», T,: 1990 yil; «Hozirgi

o'zbek adabiy tili. Sintaksis», Samarqand, 2006 yil kabi adabiyotlardan bevosita foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy ahamiyati: Mazkur malakaviy bitiruv ishining ilmiy-nazariy ahamiyati gapning bosh bo'laklarini boshlang'ich sinflarda o'rgatishning nazariy xulosalari ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

I BOB. O'ZBEK TILI SINTAKSISIDA GAP BO'LAKLARINING SHAKLIY VA MAZMUNIIY TUZILISHI

Ma'lumki, nihoyatda murakkab va o'ziga xos sistema bo'lgan til bir-birini taqozo qiluvchi, biri ikkinchisiz yashay olmaydigan fonetik, leksik, morfologik, sintaktik sathlardan iborat bo'lib, har bir sath o'zining asosiy birligiga ega. Fonetik sath uchun bu fonema bo'lsa, leksik sath uchun leksema, morfologik sath uchun so'z-shakldir. Shu singari sintaksisning ham asosiy birligi bor. Sintaksisning asosiy birligi esa gapdir. Gap jamiyatning eng muhim, uni hayvonotdan farqlovchi faoliyati fikrlash qobiliyatini namoyon qiluvchi asosiy vositadir. Gapning asosiy funktsional belgisi kommunikativlik, ya'ni fikr ifodalash va bayon qilish vazifasidir. Tilning bu vazifasini yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita gap hisoblanadi. Zero, so'z ham, so'z birikmasi ham bu vazifani bajara olmaydi. Ularning vazifasi narsa va hodisalar, belgi, harakatlarni nomlash, ya'ni nominativ vazifadir. Bu jihatdan gap fikr ifodalovchi kommunikativ birlikdir. Gap fikr ifodalovchi asosiy sintaktik qurilma bo'lishi bilan birga, eng kichik sintaktik birlik hamdir. Gapdan kichik sintaktik kategoriyalar fikr ifodalash xususiyatiga ega emas. Nutqdagi bundan keyingi bo'linish, aniqrog'i, gapning qismlarga ajralishi uning fikr bayon qilish xususiyatini yo'qotadi, chunki gap gap bo'laklari, so'z birikmalari, shuningdek, ular bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan ayrim bo'laklarga bo'linadi, xolos. Bular esa, bizga ma'lumki, nominativ vazifa bajaruvchi sintaktik hodisalardir.

Keyingi paytda sistem tilshunoslikning shakllanishi va taraqqiyoti natijasida til va nutqning farqli hodisalar ekanligi ayon bo'lib bormoqda. Bu tilning ham, nutqning ham o'zaro aloqador, biroq o'ziga xos birliklarga ega ekanligida ham ifodasini topgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, gap termini umumlashgan birlik, mohiyat sifatida til birligini ham, reallashgan birlik, hodisa sifatida nutq birligini ham ifoda etadi. Til tuzilishidagi har bir sath uchun til va nutq birliklari bo'lganidek, sintaktik sath birligi bo'lgan gap ham til va nutq birliklariga bo'linishi

kerak. Gap sathida til va nutq hodisalarini farqlash uchun “gap” yoki “gap modeli” (til birligi) va “jumla” (nutq birligi) terminlaridan foydalanish o`rinli. Gap yoki gap modeli jumlaning umumlashtirilgan, tipiklashtirilgan grammatik shakli (O.M.Maskalskaya), jumla esa uning muayyan vaziyat bilan bog`langan ko`rinishidir. Gap modeli aniq sanalish va tasvirlanish xususiyatiga ega (yopiq ro`yxatni tashkil etadi), jumlaning cheksiz bir ko`rinishda namoyon bo`lish imkoniyati mavjud.

Bundan ikki ma'no kelib chiqadi: 1. Gap haqiqatan fikr ifodalaydi, lekin bu fikr mutlaq tugal, mukammal bo`lmaydi. 2. Gap fikr ifodalovchi yagona sintaktik butunlik emas, fikr ifodalovchi gapdan katta butunliklar ham bor.

Gap so`z va so`z birikmasidan farqli o`laroq tushuncha emas, balki fikr ifodalaydi. Bu uning muhim, farqli, asosiy, xarakterli xususiyatidir. Bu xususiyat gapning ob'ektiv borliqqa xos voqea-hodisa, holatning in'ikosi ekanligida o`z ifodasini topgan. Shu sababli gap predikativ birlik yoki birikma hisoblanadi.

Demak, predikativlik gapni boshqa sintaktik birliklardan ajratib turuvchi farqli belgisidir. Shuning uchun gapning mohiyatini, grammatik tabiatini bilib olish uchun predikativlikning nima ekanligini aniq bilib olish lozim.

Xo`sh, predikativlik nima?

Predikativlik har qanday gapga xos umumiy grammatik ma'no bo`lib, gapni fikr ifodalash, xabar berish, tasdiqlash, hukm bildiruvchi birlik sifatida shakllantiruvchi asosiy grammatik xususiyatdir. Masalan: O`rik gulladi va o`rikning gullashi qurilmalarining axborot hajmi bir xil. Ular faqat shu ob'ektiv mazmunni qanday ifodalashi jihatidan farq qiladi. Birinchisida o`rikning gullaganligi tasdiqlanyapti, unda shu haqdagi hukm bor, ikkinchisida shu hodisa atalyapti xolos. Demak, 1-qurilma predikativ qurilma, 2-qurilma nopredikativ (nominativ) qurilma.

Predikativlik gapning grammatik ma'nosi, dedik. Xo`sh, bu qanday grammatik ma'no? U gapning shakllar tizimidagi qismlarga ajratilmaydigan grammatik ma'nosidir. Predikativlik shaxs (son), zamon, mayl, tasdiq-inkor ma'nolari va bu ma'nolarni ifodalovchi shakllar tizimi orqali ifodalanadi.

Binobarin, ana shunday shakllar tizimiga ega bo'lgan har qanday eng kichik sintaktik birlik gap hisoblanadi. Predikativlikning shakllanishi xilma-xil:

Har bir predikativ ma'no komponenti (tasdiq-inkor, shaxs, zamon, modallik) alohida-alohida shakllar orqali ifodalanadi. Masalan: yoz-ma-sa -(y) –di-ng-iz qurilmasi beshta predikativ ma'no komponenti, beshta grammatik shakl orqali ifodalangan: -ma(inkor)-sa (modallik)-di (zamon) –ng (shaxs)-iz (son).

Bir formant yordamida sintezlashgan holda ifodalanishi mumkin. Masalan: yoz-ay (tasdiq, aniqlik mayli, klassi zamon, birinchi shaxs).

Nol shaklga ega bo'lib, u paradigma ichida boshqa paradigma a'zolarining shakliga qiyosan belgilanadi. Masalan: yoz-ay, yoz, yoz-sin. Paradigmaning ikkinchi a'zosi yozing, ikkinchi shaxs, buyruq mayli (modallik), klassi zamon, tasdiq grammatik ma'nolarining nol shakl orqali ifodalanganligi yoz-ay va yoz-sin birikmalariga qiyosan belgilanadi.

Nol shaklga ega bo'lib, u nutq vaziyati orqali belgilanadi. Masalan: Bahor. Bu so'z o'zining shakl paradigmasida bosh shakl sifatida nominativ birlik, gap emas. Paradigmadan tashqarida predmetning umumlashgan nomini atash yo'li bilan shaxs, son, zamon, tasdiq, (mavjudlik) ma'nolarining ifodalanishi uni gapga aylantiradi.

Xullas, predikativlik gapning asosiy grammatik kategoriyasi bo'lib, u tasdiq, inkor, modallik (mayl), zamon, shaxs, son kategoriyalarining sintezidan iborat.

Demak, gapni predikativlik shakllantiradi: bu grammatik kategoriya umuman gapga xos xususiyat, lekin uning ifodalanishida kesim asosiy rol o'ynaydi. Kesim umumiy predikativlik ma'nosini konkret modallik, zamon, shaxs kategoriyalari orqali ifodalaydi. (Bir nima yo'qotganday tevarakka alanglab qolaman. O'zimni o'zim xo'rlangan deb bilaman. kabi). Hatto, Bahor. Oydin kecha. kabi atov gaplar ham mohiyatan kesimga tengdir. Chunki bu erda ham mavjudlik ana shu shaklda tasdiqlanyapti. Tasdiqlash esa kesimning funktsiyasidir. Bosh kelishikdagi so'zning bunday ma'no kasb etishida tugallangan intonatsiya muhim rol o'ynaydi. Intonatsiya gapga xos bo'lgan universal vositadir.

Gapning muhim xususiyatlaridan yana biri uning grammatik jihatdan shakllanganligidir. Buning ma'nosi shuki, har qanday tovush yoki tovushlar majmuasi soʻz boʻlmaganidek, har qanday soʻz yoki soʻzlar majmuasi gap boʻlavermaydi. Buning uchun muayyan soʻz tugallangan intonatsiya va sintaktik qurshov tufayli yangi sifat kasb etishi, mavjudlikni tasdiqlashi lozim boʻlsa, soʻzlar majmuasi oʻzaro semantik-sintagmatik aloqaga kirishib, predikativlik ifodalashi zarur boʻladi. Bularning hammasi muayyan tilning intonatsion xususiyatlari, grammatik qonun - qoidalarida asosida yuz beradi.

Ayon boʻladiki, gapning fikr ifodalashi bejiz, oʻz-oʻzidan, tasodifan boʻlmay, soʻz yoki soʻzlarning muayyan tilning grammatik qonun-qoidalarida va tugallangan intonatsiya tufayli yangi sifat kasb etishi, predikativlikka ega boʻlishidir. Masalan: *Koʻroydin emish. Momosuluvlar koʻchasida telba boʻlib yurar emishman. Birnima yoʻqotganday tentirar emishman. Yoʻl chetidagi toshga choʻnqayibman. Oyga mahliyo boʻlib, mahliyo boʻlib termilibman. Oyning beti kir emish. Oyga sonsiz oshiqlar mahliyo termildi.* Bu sintaktik qurilmalarning har biri bitta gapdir. Chunki ularning har biri ob'ektiv holat bilan bogʻliq bir holat, manzarani tasdiqlab ifodalayapti, har bir sintaktik qurilma tugallangan intonatsiyaga ega va grammatik jihatdan shakllangandir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, gapga shunday ta'rif berish mumkin: Grammatik jihatdan shakllangan, tugallangan intonatsiyaga ega boʻlgan bir soʻz yoki soʻzlar bogʻlanmasidan iborat fikr ifodalovchi eng kichik va asosiy sintaktik birlik gap deyiladi .

Gapni gap boʻlmagan boshqa lisoniy birikmalardan farqlovchi grammatik ma'no boʻlgan predikativlik har qanday gapga xos umumiy grammatik ma'no sifatida bir necha qismlardan tashkil topadi va bu qismlarning har biri oʻziga xos kichik kategoriyalarni hosil qiladi. Shu ma'noda predikativlik quyidagi tarkibiy-grammatik kategoriyalardan iborat:

- 1) gapning grammatik shaxs kategoriyasi;
- 2) gapning grammatik zamon kategoriyasi;
- 3) gapning grammatik tasdiq-inkor kategoriyasi;

4) gapning modallik kategoriyasi.

Predikativlik-gap mundarijasining voqelikka muno-sabatining ifodalanishida zamon, tasdiq-inkor, modallik kategoriyalari bilan birga grammatik shaxs ham qatnashadi. Grammatik shaxs gapda harakatning bajaruvchisi, sub'ekti yoki belgi egasi ma'nosining ifodalanishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun grammatik shaxs gapning ajralmas bir xususiyati, zarur kategoriyadir.

Grammatik shaxs kategoriyasi fe'llarning morfologik shaxs kategoriyasi asosida vujudga kelsa ham, lekin u bilan teng emas, undan bir muncha kengdir. Chunki grammatik shaxs kategoriyasi fe'l ishtirok etmagan gaplarda ham ifodalanadi. Bunda grammatik shaxs shaxs otlari, kishilik, belgilash-jamlash olmoshlari orqali, bular ham bo'lmaganda sintaktik konstruktsiyaning o'zi bilan ifodalangan bo'ladi. So'nggi holda grammatik shaxs boshqa shaxsli gaplarga qiyosan belgilanadi. Masalan: *Birodarlar, ot azzancha xosiyatli bo'lsa-da, azzancha fahm-farosatli bo'lsa-da, azzancha xushsurat bo'lsa-da, baribir, ot o'z oti o'zi bilan ot! To'rt tuyoqli jonivor! Dumli hayvon! Dostonchi doston aytadi. Xato aytsa, shartta bas qiladi. Boshqatdan tuzatib aytadi.* gapining grammatik shaxsi: gaplariga qiyosan III shaxsga aloqador bo'ladi. Grammatik shaxs kategoriyasi mazmun jihatidan olmoshlardagi shaxs kategoriyasiga o'xshashdir. Grammatik shaxs kategoriyasida ham 1-2-3– shaxs noaniq shaxs, umumlashgan shaxs, hamda shaxssizlik ajratiladi. Bunda:

- a) fe'lining shaxs-son kategoriyasi;
- b) fe'lining nisbat kategoriyasi;
- v) shaxs olmoshlari;
- g) shaxs otlari qatnashadi.

Gap tugallangan fikr ifodasidir, uning mazmun tomonidir, lekin bu fikriy tugallik nisbiydir, chunki ayrim gapdagi fikrning to'liq ochilishi nutq ichida bo'ladi. Demak, gap formal-grammatik va intonatsion jihatlardan ham, mundarija jihatdan ham tugallikka ega. Biroq uning fikriy tugalligi – nisbiy. Gap nutq ichida yashaydi. Nutqda uning mazmuni boshqa gaplar bilan munosabatda bo'lish orqali yana ham oydinlashadi. Gap bir so'z yoki so'zlar bog'lanmasidan tashkil topadi.

Bir soʻzning gap boʻlib kelishi maxsus intonatsiya tufaylidir. Bunda predikativlik intonatsiya orqali ifodalanadi: *Bahor. Hamma yoq koʻm-koʻk.*

Gap soʻzlar bogʻlanmasidan iborat boʻlganda, uning boʻlaklari maʼlum grammatik qonun-qoidalar asosida sintaktik aloqaga kiradi. Bu tip gaplarda predikativlik mayl, zamon, shaxs-son kategoriyalari, modal soʻzlar bilan ifodalanadi: *Qirdan gʻir-gʻir shabada esadi.*

Yuqoridagi belgilar asosida gapga quyidagicha taʼrif berish mumkin: Grammatik shakllangan, intonatsion va fikriy tugallikka ega boʻlgan, fikrni shakllantirish, ifodalash va bildirish vositasi boʻlgan soʻz yoki soʻzlar bogʻlanmasidan tashkil topgan eng kichik va asosiy sintaktik birlik gap deyiladi.

Gaplarning tuzilishiga koʻra turlarini belgilashda quyidagilar asos qilib olinadi:

Grammatik asos, predikativ markazning miqdori.

Gaplarning grammatik asos, predikativ markazning miqdoriga koʻra turlarini belgilashda oddiy gaplarning grammatik asosi, struktura asosi, predikativ markazi, yadrosi tushunchalarini bilib olish lozim. Bu terminlar har qanday gapning tuzilishida asosiy rol oʻynovchi boʻlaklar yoki boʻlak maʼnosini bildiradi. Bu boʻlaklarsiz gap shakllanmaydi, predikativ munosabat yuzaga kelmaydi, fikr ifodalanmaydi. Shuning uchun uni baʼzilar grammatik asos, predikativ markaz, yana baʼzilar predikativ yadro deydi. Nima deyilishidan qatʼi nazar, soʻzni oʻzak morfemasiz tasavvur qilib boʻlmaganidek, gapni ham mazkur boʻlaklarsiz tasavvur qilib boʻlmaydi.

Gapda bunday vazifani ega va kesim munosabati yoki kesimning oʻzi yoki kesim sostavi bajaradi. *Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Yangisini qurmay, eskisini buzmay. Shovqin qilmang. Etti oʻlchab, bir kes.*

Demak, gapning grammatik asosi, predikativ markazi ega va kesim munosabatidan tashkil topgan predikativ qurilma yoki kesim sostavi yoki kesimning oʻzidan tashkil topgan predikativ birlikdan iborat.

Predikativ markazning tarkibiga yoki bosh boʻlaklarning miqdoriga koʻra sodda gaplar ikkiga boʻlinadi: 1. Ikki bosh boʻlakli gap. 2. Bir bosh boʻlakli gap.

Egasi ham, kesimi ham mavjud bo'lgan sodda gaplar ikki bosh bo'lakli gap sanaladi. Bunda bosh bo'laklardan tashqari ikkinchi darajali bo'laklar qatnashishi ham, qatnashmasligi ham mumkin. Masalan: *Onamiz norozi bo'ldi. Uyqum qochdi! Dumli hayvonni odamga el qilish barchaning-da qo'lidan kelmaydi.*

Predikativ yadrosi bitta bo'lgan sodda gaplar bir bosh bo'lakli sodda gaplardir. Bunda bosh bo'lak yolg'iz o'zi yoki ikkinchi darajali bo'laklar bilan birgalikda predikativ yadroni tashkil etgan bo'lishi mumkin. Demak, bu erda predikativ yadroning tarkibi yoyiq yoki yig'iq holdagi bir bosh bo'lakdan iborat bo'ladi. O'zbek tilida bosh bo'lagi kesim bilan ifodalangan bir bosh bo'lakli gaplar ko'pchilikni tashkil qiladi. *Kitobida bir joyi yoqimsiz bo'lsa, shoir qalam bilan shartta-shartta o'chiradi, yoqimli qiladi. To'rt tuyoqli jonivorni ot qilish uchun, avvalambor, ko'ngilda bo'lmog'i lozim! Uy bekasi qozon osdi. Palovga urindi. – Odam so'zlashib topishadi, yilqi kishnashib topishadi. Ziyodulla chavandoz!* tipidagi bir bosh bo'lakli gaplarning qo'llanishini inkor qilmaydi. Bu xil gaplarda predikativlik ega shaklidagi so'zlarni tugallangan intonatsiya bilan aytish va undan keyin boshqa gaplar kelishi orqali ifodalanadi. Shuning uchun uni eganing aynan o'ziga tenglashtirib bo'lmaydi. Bu so'zlar yoki birikmalar bir vaqtning o'zida ham ega, ham kesim vazifasini o'taydi.

Bir bosh bo'lakli gaplarni *Sen kelding - boshlayveramiz: Kecha bordim, yo'qsan* kabi qo'shma gaplardan, shuningdek, *Xo'p. Mayli. Barakalla. Ofarin.* shakllaridagi so'z-gaplardan va dialoglarda ishlatiladigan gaplardan (qachon kelding - kecha kabi) *Ona.* Naqadar ulug' so'z kabi sintaktik qurilmalardan farqlash kerak. Birinchi holda gap qo'shma gap, ikkinchi holda so'z-gap, uchinchi holda to'liqsiz gap, turtinchi holda esa tasavvur nomi to'g'risida ketyapti. Chunki *Sen kelding – boshlayveramiz.* gapida ikkinchi komponent kesimdan tashkil topgan bir bosh bo'lakli gapdir, binobarin, u qo'shma gapdir. *Xo'p. Mayli. Barakalla. Ofarin.* So'z-gaplari esa oldin aytib o'tilgan fikrga ekspressiv modal munosabatlarni ifodalaydi va bo'laklarga ajralmasligi bilan xarakterlanadi. To'liqsiz gaplarning yashiringan bo'laklari mavjud bo'ladi. Bir bosh bo'lakli gaplarda esa biron bo'lak yashirinib qolmaydi, ular fikrning ana shunday shakldagi

ifodasidir. So`nggi holatda tushuncha nomi (Ona) alohida ta'kidlangan, ma'no kuchaytirilayotir. Bu erda fikr ifodalangayotani yo`q. Fikr ta'kidlangan so`zdan keyin kelayotgan sintaktik qo`shilma orqali ifodalanadi. Bu bir fikr-mazmunni ana shunday bo`laklab ifodalashdir.

Ma'lumki, kishi nutqining intonatsion butunlikdagi, grammatik jihatdan shakllangan, nisbiy tugal bir fikrni bildiradigan so`zlar bog`lanmasi yoki alohida bir so`z shaklidagi parchasi gap sanaladi. Gap yolg`iz muhokamani, hukmni bildirmasdan istak, buyruq, so`roq kabi ma'nolarni ham ifodalab keladi. Shu bilan birga, gap orqali ichki tuyg`ularimiz, hayajonlarimiz ham ifodalanadi. Demak, gap hukmning til materiallari bilan ifodalangan shakli, qobig`idir. Hukm gapsiz mavjud bo`lmaydi. Lekin gapda hukmdan tashqari fikrning boshqa turlari (buyruq, so`roq va b.k) ham ifodalanishi mumkin. Shuningdek, gap so`zlovchining dunyoga, voqelikka va fikrga bo`lgan munosabatini ham bildiradi. Demak, gap shakl va mazmunga ega birlikdir. Bundan ayon bo`ladiki, gap semantik- sintaktik butunlikdir. Semantik-sintaktik butunlik bo`lgan gaplarning aksariyati bir necha qismlardan iborat. Chunki gaplarning ko`pchiligi odatda so`zlar bog`lanmasidan tashkil topgan bo`ladi. Gap semantik- sintaktik butunlik ekan, uning qismlarini semantik-sintaktik bo`laklar deyish mumkin. Gapning eng mukammal tipini mujassam etgan gap 8 semantik-sintaktik bo`lakdan iborat bo`ladi. Bularning 5 tasi odatdagi gap bo`laklari bo`lsa, 3 tasi odatdagi gap bo`laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydigan bo`laklardir. Bular, ma'lumki, undalma, kirish va kiritma deb ataladi.

Demak, semantik-sintaktik bo`lak gap bo`laklaridan kengroq tushunchaga ega bo`lib, gapni to`liq qamraydi. Shu ma'noda semantik-sintaktik bo`lak gapning o`ziga xos ma'no-vazifa va shaklga ega bo`lgan qismidir.

Bu holda semantik-sintaktik bo`lak ikkiga bo`linadi:

- 1.O`zaro sintaktik aloqaga kirishadigan semantik-sintaktik bo`laklar.
- 2.Bevosita sintaktik aloqaga kirishmaydigan semantik- sintaktik bo`laklar.

O`zaro sintaktik aloqaga kirishadigan bo`laklar shu choqqacha gap bo`laklari doirasida o`rganilgan semantik-sintaktik bo`laklardir. Bular gapning predikativlik

ifodalovchi qismini shakllantiruvchi bo`laklar ekanligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun gap bo`laklari nisbatan gaplarning doimiy, zaruriy bo`laklari hisoblanadi.

Ishni olib borish jarayonida biz sintaksis bo`yicha qilingan ishlarni ko`rib-chiqib, badiiy matndan aynan gap bo`laklarini qanday ajrata olish, ularning o`rnini aniqlash kabilarga o`z e'tiborimizni qaratdik. Bosh bo`laklar, ya'ni ega bilan kesimning qo`llanishidagi o`ziga xosliklarni, ularning ifodalanishi, ularning shakliy-morfologik tuzilishi, mazmuniy qurilishi, va bosh bo`laklarning gapda kelish o`rni kabilarni asar vositasida o`rganib chiqishga harakat qildik.

1.1. O`ZBEK TILI GAP QURILISHIDA BOSH BO`LAKLARNING O`RNI VA O`RGANILISHI HAQIDA

Har bir gapda ma'lum ob'ektiv mazmun ma'lum sintaktik shakllar vositasida ifodalanadi. Gapning ana shu sintaktik shakllar bilan ifodalanish tomoni uning sintaktik tuzilishi sanaladi.

Tobe aloqa tarkibida muayyan sintaktik vaziyatda keluvchi eng kichik sintaktik shakl gap bo`lagi sanaladi.<sup>1</sup> Muayyan so`z shakliining boshqa so`z shaklga nisbatan holati uning vaziyati sanaladi. Aynm bir so`z shakli turli xil sintaktik vaziyatda turli gap bo`lagi vazifasida kelishi mumkin. Tobe aloqaga kirishayotgan so`z shakllar juftligida tobe qism hokim qism talab etgan vaziyatda keladi. Ko`rinadiki, tobe qismning vaziyati aniq, hokim qismning vaziyati noaqin bo`ladi. Uning qaysi vaziyatda kelayotganligi nutq zanjirining keyingi xalqasida aniqlanadi. Gap bo`lagi ham til birligi sifatida shakl va mazmun qarama-qarshiligi birligidan tashkil topgan murakkab qurilmadir.

Ana shunday murakkab qurilmaning, ya'ni sintaksisning, gap bo`laklarining o`rganilishi ham ancha qiyinchiliklarni talab qiladi.

1 Mahmudov N., Nurmonov A. O`zbek tilining nazariy grammatikasi. T.: «O`qituvchi», 1995 –yil, 59-bet

O'zbek tilshunosligida sintaksisning o'rganilishi tarixi ancha diqqatga sazovordir. Sintaksisning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadigan, gap bo'laklari ayniqsa, bosh bo'laklarning o'rganilishida tilshunos olimlarimizdan G'.Abduraxmonov, A.Hojiev, B.O'rinboev, N.Mahmudov, A.Nurmonovlarning nomlarini faxr bilan tilga olsak arziydi. Quyida gapning bosh bo'laklari haqida atoqli tilshunos olimlarimiz aytgan fikrlari bilan bevosita tanishdik va ularning ishlari asosida bugungi magistrlik ishimizni olib bordik.

Gap bo'laklari murakkab shakliy va mazmuniy tuzilishga ega ekanligini professor A.Nurmonov alohida ta'kidlagan holda: «Har qanday gap bo'lagi shakliy jihatdan moddiy asos (morfologik shakl) va sintaktik vaziyat (sintaktik shakl) qarama-qarshiligi va birligidan iborat», -deydi.² Gap bo'laklarining sintaktik qurilmani tashkil qilishdagi roli bir emasligi yuqorida ta'kidlab o'tdik. Bu esa bir qator ishlarda, jumladan, G'.Abdurahmonov, B.O'rinboev, N.Mahmudov, A.Nurmonovlarning ishlarida gap bo'laklarni ikkiga: bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga bo'lib o'rganilganligini ko'rsatadi.

Gapning bosh bo'laklarning ahamiyatga ega ekanligini, ularning doimo gapda qatnashishi shart ekanligini, ularning ifodalanishi, tuzilishi va mazmuniy jihatdan turlarini, shuningdek morfologik shakllarini ham yuqorida sanab o'tgan olimlarimiz juda yaxshi tushuntirib, mohiyatini ochib bergan. Quyida esa ana shu fikrlar bilan tanishib chiqamiz:

Tilshunoslikda sintaktik tuzilish tarkibidagi barcha sintaktik shakllar gap bo'laklari tarkibiga kiritilmay kelinmoqda. Jumladan undosh va kirish munosabatlar orqali ifodalangan birliklar sintaktik tuzilish birligi sifatida qaralmaydi. Haqiqatda ega bilan kesim, undalma bilan kesim moslashuv yo'li bilan, kirish bilan kesim boshqaruv, bitishuv yo'li bilan grammatik aloqaga kirsa, undalma, kirish bilan gap bo'laklari muvofiqlashuv yo'li bilan grammatik aloqaga kiradi.

² Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. T.: «O'qituvchi», 1995 –yil, 60-bet

Sintaktik tuzilish tarkibidagi bircha sintaktik shakllar gap bo`laklari tarkibiga kiritilmaydi. An'anaviy tilshunoslikda sintaktik shaklning aloqaga kirishi haqida turli-tuman fikrlar mavjud:³

1. Gap bo`laklari sintaksisi dunyoga kelgandan buyon gap bo`-laklariga ajratish masalasida tilshunoslar bir umumiy fikrga kelgan emas. Buning bosh sababi butunni bo`laklarga ajratish tamoyilining ko`pchilikka ma'qul kelmaganligi, bo`lish tamoyilining buzilganligidir.

2. Gap bo`laklari sintaksisi sohasidagi bahslar faqat gapni bo`-laklarga ajratish tamoyili bilangina cheklanmaydi. Bu baxs gap bo`laklarini darajalarga bo`lish tamoyilida ham uchraydi. Avvalo, gap bo`laklari sifatida ajralgan bo`laklarni biror tamoyil asosida ikki daraja (bosh va ikkinchi darajali bo`lak)ga ajratishda ham jiddiy kelishmovchiliklar mavjud.

3. Bosh bo`laklarga qaysi tamoyil asosida qanday bo`laklarning kiritilishi ham muammoli. Atributiv mantiqning ikki cho`qqilik tamoyiliga amal qilgan tilshunoslar bosh bo`laklarni ikki a'zoga bo`lgan holda kesimni uning tarkibiga kiritsalar, munosabat mantiqiga tayanib, tillarning grammatik xususiyatlarini e'tiborga olgan tilshunoslar faqat kesimni eng muhim, konstruktiv bo`lak bosh bo`lak hisoblaydilar.

4. Gap bo`laklarini ikki guruhga-bosh va ikkinchi darajali bo`laklarga ajratib o`rgangan tilshunoslar ham ikkinchi darajali bo`laklarni o`rganish jarayonida bu bo`laklarning gap tuzilishida ishtirok etishi bir xil emasligini angladilar. Natijada ularni gap bo`laklari va gap bo`lagini bo`laklariga ajratdilar. Shuning o`ziyoq gap bo`laklarini ikki darajali bo`laklarga ajratishning etarli asosga ega emasligini ko`rsatdi. Bu bo`laklar gapning tuzilishidagi ishtirokiga ko`ra bir necha darajaga bo`linishi mumkin ekanligini tasdiqladi. Ular bir necha darajalarga bo`linishi mumkin.

5. Gap bo`laklariga ajratishning tamoyilini ham qayta ko`rib chiqish va uni butunni bo`laklarga ajratishni eng qulay tamoyili bilan almashtirish lozimligini

³ Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. O`rinboyev B., Samarqand-2006- yil., 57-60 betlar

ko'rsatadi. Ana shunday tamoyil shakl va mazmun munosabat tamoyilidir, deydi atoo'li tilshunos olim B.O'rinboev. Bu tamoyilga muvofiq har qanday mazmun muayyan shakl orqali o'z ifodasini topadi. Shaklsiz mazmun, mazmunsiz shakl mavjud emas. Shunday ekan, gapning tarkibidagi kirish va kiritmalar ham muayyan mazmuniy munosabatning uzvlari sanaladi. Ular ma'lum mazmuniy munosabatni ifodalar ekan, u muayyan tashqi ifodasiga ham ega bo'ladi. Shuning uchun ularni grammatik aloqadan tashqaridagi bo'laklar sifatida qarash mantiqqa xilof.

Keltirilgan fikr-mulohazalar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilshunosligida hali o'rganilishi lozim bo'lgan masalalar etarli. Keyingi yillarda sintaktik kategoriyalar sistem–struktur yo'nalishida ancha chuqur va yangicha o'rganila boshladi.

An'anaviy tilshunoslikda sintaktik shaklning tobe aloqaga kirishi uning gap bo'lagi hisoblanishining bosh mezoni hisoblanadi. Gap bo'lagi ma'lum shakliy sintagmatik munosabatdagi vaziyatga qarab belgilanadi: kesim vaziyati, ega vaziyati, aniqllovchi vaziyati kabilar. Natijada ayrim mazmuniy munosabatda bo'lgan, lekin bu mazmuniy munosabat shakliy jihatdan tobe munosabat orqali emas, balki undash va kirish munosabatlari orqali ifodalangan birliklar sintaktik tuzilish birligi sifatida qaralmaydi.

Sintaktik birlik hisoblangan gapning shakliy tuzilish jihatdan uning zidiyatini hisobga olgan holda quyidagi sintaktik shakllarga bo'lib o'rganib kelmoqdalar:⁴

- 1) sintaktik aloqaga kirishadigan sintaktik shakllar. Buni gap bo'laklari atamasi bilan ataydilar.
- 2) sintaktik aloqaga kirishmaydigan sintaktik shakllar. Buni ayrim tilshunoslar uchinchi darajali bo'laklar nomi bilan yuritadilar. (A. R. Sayfullaev).⁵

Hozirgi tilshunosligimizdagi sistem–struktur ta'limoti bo'yicha sodda gapning eng kichik qurilish qolipi (WPm) dir, ya'ni gapning markazi kesimdir.(W) – atov birligiga va (Pm) – N, M, T, P lar gaplarga tengdir. – N, M, T, P lar

⁴ Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. O'rinboyev B., Samarqand-2006- yil., 57-60 betlar

⁵ Sayfullaev A.R. Hozirgi o'zbek tilida gap bo'laklarining semantikasi va grammatikasi- T.: 2000-yil.

gapni shakllantiruvchi grammatik vositalardir. Atov birliklarining leksikada, grammatik vositalarning sintaksisda o'rganilishi tabiiy bir hol.

Hozirgacha tabiiy aloqa tarkibida muayyan vaziyatda keluvchi eng kichik sintaktik shakl gap bo'lagi sifatida o'rganib kelin-moqda. Tilshunoslarimiz ishlarida gap bo'laklarini ajratish tamo-yillari quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz:

1) Gap bo'laklarini ajratishda asosiy omil-nutqiy gapning emas, balki lisoniy sintaktik qolip tarkibiy qismlar-gapning konsturuktiv bo'laklariga ajratiladi.

2) Gapni shakllantiruvchi grammatik vosita kesimlik kategoriyasi bo'lganligi sababli gapning konsturuktiv bo'laklari kesimlik kategoriyasi, ya'ni, (Pm) simantikasi bilan uzviy aloqadorlikda bo'ladi va unda mujassamlangan umumiy grammatik ma'nolarni leksik-semantik muayyanlashtiradi.

Kesim (Pm) semantik strukturasi (N, M, T, P) majmuasidan iborat bo'lganligi uchun gapning konsturuktiv bo'laklari (Pm) tarkibidagi N yoki M, T yoki P ma'nosini namoyon etishga xizmat qiladi.

Kesim (Pm) tarkibidagi (R) ma'nosi gapning struktur elementlaridan ega vositasida (T) semantikasi o'rin – payt hollari vositasida, (N) va (M) ma'nolari tarz, ravish, chog'ishtirish va boshqa hollari hamda murakkablashtiruvchi bo'laklar yordamida muayyanlashtiriladi.

3.Hollar va murakkablashtiruvchi bo'laklar orasidagi farq sintaktik bo'lmay, leksik- morfologikdir; hollar , fe'l , ot, sifat, ravish, taqlid, olmoshlar (yoki shunday so'zli birikmalar vositasida), murakkablashtiruvchi bo'laklar esa so'z-gaplar vositasida ifodalanadi.

4.Gapning konstuktiv bo'lagi miqdoran bita so'zga, so'z birikmasiga transformattsiyalashtirilgan sodda yoki qo'shma gapga teng bo'lishi mumkin.

5.Undalma va kirishlar gapga bilvosita emas, balki bevosita aloqador bo'lib, ularning murakkablashtiruvchi bo'laklar deb atash mumkin. Chunki gapning grammatik markazi (G M) q (WPm) dir. U (A), (M), (T), (X) murakkablashtiruvchi bo'laklar bilan kengayadi.

Xullas, gap bo`lagi ham til birligi sifatida shakl-mazmun, qarama-qarshiligi va birligidan tashkil topgan murakkab tuzilmadir.

Gap bo`laklarining shakliy va mazmuniy tuzilishlarini hamda ular o`rtasidagi munosabatni belgilash tilshu-nosligimizning muhim vazifasidir.

Har qanday gap bo`lagi shakliy jihatdan morfologik va sintaktik shakl qarama- qarshiligi va birligidan iborat. Morfologik shakl sintaktik shaklning vujudga kelishi uchun asos bo`lib xizmat qiladi. Leksik morfologik shakl asosida hosil bo`lgan sintaktik shakl sifat jihatdan tamoman farqli bo`lgan yangi va unga nisbatan yuqori shakldir.

Ma'lum sintaktik vaziyatda har qanday morfologik shaklar emas, balki shu vaziyatga muvofiq keluvchi morfologik shaklar tizimi mavjud bo`ladi. Masalan, ega, undalma, sintaktik vaziyatda bosh kelishikdagi ot, otlashgan sifat, son, olmosh va morfologik shakllar kela oladi. Bu morfologik tizimidan biri ma'lum sintaktik vaziyat uchun ko`proq xoslangan bo`ladi. Ega undalmaning morfologik shakllar tizimidan bosh kelishikdagi ot, ega va undalma sintaktik vaziyat uchun ko`proq xoslangandir. Bu esa morfologik shakl bilan sintaktik vaziyatni ma'lum darajada o`zaro bog`liqligini ta'minlaydi.

Gap bo`lagi mazmuniy jihatdan ham bir necha unsurlardan tashkil topadi. U, birinchidan, birlikdagi narsa va hodisalar, harakat -xolat va ular o`rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi, ikkinchidan, gap tarkibida ishtirok etib boshqa ma'noga munosabatda bo`ladi. Bu ikki ma'noning birinchisi uchun morfologik ma'no, ikkinchisi uchun sintaktik ma'no atamaları ishlatiladi.

Morfologik ma'no sintaktik ma'no mundarijasini belgilaydi. Sintaktik ma'no esa gap tarkibida boshqa sintaktik ma'no bilan munosabatlarda vujudga keladi.

Sintaktik ma'no morfologik ma'noga nisbatan umumiylik (invariant) bo`lsa, morfologik ma'no sintaktik ma'noga nisbatan xususiylik (variant) bo`ladi.

Sintaktik uchun morfologik ma'nolarni birlashtiruvchi ma'no bo`lgan ma'no muhim sanaladi. Morfologik ma'no esa sintaktik ma'nolarning farqli belgilarini ko`rsatishda katta ahamiyatga ega. Sintaktik ma'no hisoblangan predikat ma'nosi sub'ekt, ob'ekt ma'nolariga nisbatan belgilanadi va u turli morfologik ma'nolarni

o`zida birlashtiradi: xarakat ma'nosi (bola o`qidi, o`quvchi yozdi), belgi ma'nosi (tez gapirdi yaxshi ishladi) xolat ma'nosi (opam uxladi, bola o`yladi va boshqalar) natijada predikativ mundarijasini belgilovchi morfologik ma'nolar paradigmasi vujudga keldi.

Gap bo`lagining o`zi ikkilangani xususiyatga ega bo`lishi bilan birga uning tarkibida shakl va mazmun unsurlari xam ikkilangandir. Gap bo`lagi shakl morfologik va sintaktik shakl birligidan tashkil topgani kabi, uning ma'nosi ham morfologik va sintaktik ma'no birligidan tashkil topadi. Sintaksisdagi ega, undalma, ot kesim, izohlovchi, tasavvur nomi, atov gap, vokativ gap bosh kelishik shaklida keladi. Ular shakl jihatdan bir-biriga o`xshaydi.

Undalma shakl jihatidan egaga o`xshab ketadi, mazmunan undan farq qiladi, ular quyidagiladir:⁶

1. Ega, undalma gap bo`lagi, biri bosh bo`lak, ikkinchisi murakkablashgan bo`lakdir.

2. Gapdagi muhit egaga taalluqli bo`lsa, undalma gapda murojaat undashishni bildiradi.

3. Ega gap bo`laklari bilan sintaktik jihatdan moslashuv, boshqaruv, bitishuv aloqasida bo`ladi, undalma gap bo`laklari orasida muvofiqlashuv aloqasi mavjud.

4. Ega mazmuni qaysi shaxsni bildirsa, o`sha shaxs shaklida. Undalma mazmuni ikkinchi shaxsni bildirib keladi: *Uzangi yo`ldoshlari-da oromini yo`qotdi. Birodarlar, shukur-shukur, arizabozlarning borligiga shukur!*

5. Ega gapda ma'lum so`roqqa javob bo`ladi. Undalma gapda biror so`roqqa javob bo`lmaydi.

6. Gapda eganing ma'lum o`rni bor. Undalmaning gapda qat'iy bir o`rni yo`q.

7. Ega gapning boshqa bo`laklaridan hech qanday belgi bilan ajratilmaydi. Undalma gap bo`laklaridan pauza va tinish belgi bilan ajratiladi.

⁶ Hozirgi o`zbek adabiy tili. Sintaksis. O`rinboyev B., Samarqand-2006- yil., 57-62 betlar

Bu narsa shakl va mazmun o'rtasidagi qarama-qarshilik birligini gap bo'laklarini namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Gap grammatik shakllangan, intonatsion tugallikka ega bo'lgan, nisbiy tugal fikr bildiradigan so'zlar yig'indisidan yoki ayrim bir so'zdan tashkil topadi. Gap bo'laklari tushunchasi birdan ortiq so'zdan tashkil topgan gaplarga tadbiq qilinadi. Yolg'iz bir so'zdan iborat bo'lgan gaplarda (bas, ha, yo'q tipidagi so'z - gaplarda) gaplarning bo'laklari to'g'risida so'zlash mumkin emas, chunki gapning bo'laklari gap tarkibidagi so'zlarning ma'lum qonun – qoidalar asosida o'zaro bog'lanishidan hosil bo'lgan sintaktik butunlikning qismlaridir.

Ma'lumki, gapdagi so'zlar bir–birlari bilan teng yoki tobe aloqaga kirishishi mumkin. Gapni bo'laklarga ajratishda so'zlarning tobe aloqaga kirishish asosiy mezon sanaladi. Teng aloqa gapning bo'laklarini belgilashda asosga olinmaydi.

Gapning bo'laklari tobe aloqadagi turli xil so'z bog'lanmalari asosida gapda tug'iladigan va gapning elementlari o'rtasidagi munosabatlarni ifoda etadigan sintaktik kate-goriyadir.

Gap bo'laklarining materiali so'zlardir. So'zlar gap tarkibida bir -birlari bilan sintaktik aloqaga kirishgandagina nutqda gapning u yoki bu bo'lagi vazifasida kela oladi. Sintaktik aloqa gap bo'laklarining asosiy belgisi, muhim xususiyatidir. Bu narsa (sintaktik aloqa) gapning bo'laklari bilan undalma va kirish so'zlari o'rtasidagi farqni aniqlash uchun imkon beradi. Undalma va kirish so'zlar gap tarkibidagi so'zlar bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi. Shunga ko'ra, ular odatda gapning bo'laklari hisoblanmaydi.

Amaliyotda ko'pincha gapning bo'laklari so'roqlar berish usuli bilan aniqlanadi. Bu usul ba'zi jihatlardan o'zini oqlay olmaydi. **Masalan:** *-Ziyodulla chavandoz, bizning to'riqniyam bir ko'ring uka, ukam,-dedi.* gapida **Ziyodulla chavandoz** so'zi ham, **ukam** so'zi xam bir xil so'roqqa -kim so'rog'iga javob bo'ladi, lekin ularning birinchisi gapning bo'lagi –ega, ikkinchisi esa gapning bo'lagi ekanini so'roqlar yordamida aniqlab bo'lmaydi. Chunki bu gapdagi bo'laklarning har ikkovi bir xil so'roqqa –nima so'rog'iga javob bo'lsa ham ularning biri– ega, ikkinchisi kesimdir.

Gapning bo`laklari maxsus grammatik ko`rsatkichlarga ega bo`lganda, so`roqlar ularning turini aniqlash uchun yordam berishi mumkin. Masalan: gapdagi biror so`z kimni, nimani so`roqlaridan biriga javob bo`lsa, to`ldiruvchi; nima qildi, nima qilasan so`roqlaridan biriga javob bo`lsa-kesim deb ko`rsatiladi. Lekin bu gap bo`laklarining turini aniqlashdagi sof amaliy usuldir. Nazariy jihatdan qaraganda gapdagi u yoki bu so`z shunday so`roqlarga javob bo`lgani uchun to`ldiruvchi yoki kesim vazifasida kelayotgani yo`q, balki u o`zi to`ldiruvchi yoki kesim bo`lganidan shunday so`roqlarni talab qilayotir.

Shunday qilib, sintaktik aloqa, uning turi gapni bo`laklarga ajratishda asosiy omildir. Gapning bo`laklari orasidagi aloqa turli vositalar bilan ifodalanadi: so`z formalari orqali *Men Tarlon jilovini unga berdim*, yordamchi so`zlar orqali *Chavandozlar bilan olislardagi ko`pkarilarga bordi.*; tartib va intonatsiya orqali *Yam- yashil dalalar. –Dalalar yam – yashil.* Gap bo`laklarining turini belgilashda bu vositalarning ma'lum o`rni bor. Masalan, sifatlovchi va sifatlanmishni belgilashda tartib asosga olinadi. Ega bilan kesim bir turkumga oid so`zlardan bo`lganda, tartib ularning qaysi biri ega va qaysi biri kesim ekanini aniqlashga yordam beradi.

Qiyoslang: *Yashamoq – mehnat qilmoq. Mehnat qilmoq – yashamoq* (birinchi o`rinda qo`llangan bo`lak–ega, ikkinchi o`rinda qo`llangan bo`lak esa kesim).

Gap bo`laklarining turini belgilashda ba'zan uning qanday so`z turkumi bilan ifodalanishini asosga oladilar. To`g`ri, ba'zi bo`laklar ko`pincha muayyan so`z turkumi bilan ifodalanadi. Masalan, ega ko`pincha ot bilan, kesim esa fe'l bilan ifodalanadi. Biroq ega va kesim bulardan boshqa so`z turkumlari orqali ham ifodalanishi mumkin. Binobarin, gap bo`laklarining turini qanday so`z turkumi bilan ifodalanishiga qarab aniqlash hamma vaqt ham to`g`ri bo`lmaydi.

Gap bo`laklarining turini aniqlashda ba'zan uning grammatik formasiga e'tibor beradilar. To`g`ri, qaratqich kelishigi formasidagi so`z aniqlovchi, tushum kelishigi formasidagi so`z esa to`ldiruvchi sanaladi. Biroq o`rin–payt, chiqish va jo`nalish kelishigi formasidagi so`zlar to`ldiruvchi ham, hol xam bo`lishi mumkin.

Bunday vaqtda gap boʻlaklarining grammatik formasi ularning turini belgilash uchun asos boʻla olmaydi. Gap boʻlaklarining turini belgilashda sintaktik aloqaga kirishuvchi elementlarning semantik xususiyatlari xam hisobga olinishlari lozim.

Gap boʻlaklarining turi odatda bir–biriga nisbat berib tayinlanadi. Chunonchi, ega-kesimga, kesim egaga nisbatan, toʻldiruvchi toʻldirilishga, hol hollanishga, aniqlovchi aniq-lanmishga nisbatan tayinlanadi. Nisbat beriluvchi element boʻlmas ekan, u yoki bu boʻlak haqida xam gapirish mumkin emas. Masalan, aniqlanmish boʻlmas ekan, aniqlovchi haqida, kesim boʻlmas ekan, ega haqida gapirib boʻlmaydi. Demak, gap boʻlaklarining turini belgilashda sintaktik aloqaga kirishuvchi elementlarning turi, shakli, bir – biriga nisbati, leksik – semantik xususiyati va ularni sintaktik aloqaga kirituvchi vositalar asosga olinadi.

1.2. GAP BOʻLAKLARINING DARAJALANISHI

Tobe aloqada muayyan sintaktik vaziyatda keluvchi eng kichik sintaktik shakl gap boʻlagi sanaladi. Muayyan soʻz shaklining boshqa soʻz shaklga nisbatan holati uning vaziyati sanaladi. Baʼzan ayni bir soʻz shakli turli xil sintaktik vaziyatda turli gap boʻlagi vazifasida kelishi mumkin. Masalan, Shahar-shahar, qishloq-qishloq, sen-sen, u-u. Bu gaplardagi bosh kelishikdagi soʻz shakllari ega va kesim vazifasida kelayapti. Gap boʻlagi gapning boshqa boʻlaklari bilan oʻzaro grammatik bogʻlangan, uzviy munosabatga kirishgan organik qismidir. Gap boʻlagi bilan gap orasidagi munosabat qismi bilan butun orasidek munosabatdek boʻlib, dialektik xarakterga ega.

Gap boʻlaklarining sintaktik qurilmani tashkil qilishdagi roli bir xil emas. Ayrim boʻlaklar gap qurilishida markaziy oʻrinni egallaydi. Bu boʻlaklar gap qurilishidan chiqarib tashlansa, gap shakliiy tomondan ham, mazmun tomondan ham oʻz xususiyatini yoʻqotadi. Ayrim boʻlaklar esa gap qurilishida etakchi rol oʻynamaydi. Ular gap qurilishida ishtirok etib, gapning axborot hajmini kengaytiradi. Shunga muvofiq, gap boʻlaklari ikki darajaga boʻlinadi:⁷

⁷ Mahmudov N., Nurmonov A. Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi. T.: «Oʻqituvchi», 1995 –yil, 64-bet

1. Bosh bo`laklar.

2. Ikkinchi darajali bo`laklar.

Gap bo`laklarini belgilashda quyidagilar asosga olinadi:

- 1) gap bo`laklarining leksik - semantik xususiyati;
- 2) gap bo`laklarining o`zaro sintaktik aloqaga kirishish usullari;
- 3) gap bo`laklarini sintaktik aloqaga kirituvchi vositalar;
- 4) sintaktik aloqa komponentlarining formasi;
- 5) sintaktik aloqaga kiruvchi komponentlarning bir-biriga nisbati.

Gap bo`laklarini belgilashda so`zning leksik-semantik xususiyati ham rol o`ynaydi. Masalan: *Maktabni bitirib, qalb amri bilan kolxozda qoldim.* misolidagi qalb amri bilan bo`lagi harakatning qanday bajarilishini bildiradi: qanday - qalb amri bilan - ravish holi. –*Chavandozlar-ov! Gapimni o`ng qulog`ing bilan-da, chap qulog`ing bilan-da, eshitib ol!* misolidagi o`ng qulog`ing bilan-da, chap qulog`ing bilan-da bo`lagi qanday bajarilishini bildirmay, balki harakat vositasi bo`lgan predmet ma'nosini anglatib, to`ldiruvchi sanaladi. Gap bo`laklari deganda odatda gapda ma'lum sintaktik vazifani bajaruvchi mustaqil so`zlar nazarda tutiladi, yordamchi so`zlar mustaqil so`zlar bilan birgalikdagina gap bo`lagi bo`lib kelishi mumkin. Anglashiladiki, gap bo`laklari bilan so`z turkumlari orasida ma'lum bog`lanish bor. Gap bo`laklari sintaktik kategoriya bo`lib, gap sostavidagi elementlarning o`zaro munosabatini, bu munosabatning xarakterini, gapning grammatik jihatdan qanday bo`laklarga bo`linishini, so`zning gapdagi rolini ko`rsatadi. Demak, bunday munosabatda gap bo`laklarining aloqasini, bog`lanishini ko`ramiz. Masalan, ega bilan kesim, qaratuvchi bilan qaralmish orasidagi moslashuv, aniqlovchi bilan aniqlanmish, hol bilan hollanmish orasidagi munosabat bitishuv, to`ldiruvchi bilan to`ldirilmish orasidagi munosabat boshqaruvdir.

Gap bo`laklarining turini aniqlashda so`zlarning bog`lanish yo`li ham o`ziga xos rol o`ynaydi. Jumladan, yordamchi so`zlar orqali bog`langan so`zlardan biri-yordamchi so`z qo`shilib kelgan so`z bosh bo`lak bo`la olmaydi, demak u ikkinchi darajali bo`lakdir.

Soʻzning qaysi gap boʻlagi vazifasida kelayotgani uning qaysi formada qoʻllanayotganiga ham bogʻliqdir. Odatda ega bosh kelishik formasida, vositasiz toʻldiruvchi vositali toʻldiruvchi va hol tushum, oʻrin-payt, chiqish kelishigi formasida yoki koʻmakchilar bilan birga koʻmakchili konstruktsiya shaklida keladi.

Gapdagi soʻzlar toʻgʻridan-toʻgʻri emas, balki bir-biriga nisbatan belgilanadi. Kesim doim egaga tobedir, toʻldiruvchi va hol esa kesimga, aniqllovchi barcha gap boʻlaklariga va boshqa aniqllovchiga tobedir. Demak, gap boʻlaklarining sintaktik munosabati tobelikka asoslangan. Bundan yana shunday xulosa chiqadiki, soʻzning qaysi gap boʻlagi ekanligi uning qaysi soʻzga tobeligiga ham bogʻliqdir. Egaga bogʻlanib, tobelanib kelayotgan soʻz yo aniqllovchi, yo kesimdir. *Yuzlari tandirdan endi uzilgan nonday qizil, moʻylovli bir odam uloq boshiga keldi.*—*yuzlari tandirdan endi uzilgan nonday qizil, moʻylovli-* aniqllovchi; *Birodarlar, toʻriq ot malla boʻladi gapida Malla boʻladi-* kesim.

Gap boʻlaklarini belgilashda soʻzlarga savol berish ham muhim oʻrin tutadi. Masalan, *Men enkayib uloqqa yopishdim.* -kim uloqqa yopishdi?-men; men -ega, yopishdim- nima qildim? -yopishdim -kesim. Lekin bu usul hamma vaqt ham oʻzini oqlamaydi: Masalan, qanday? soʻrogʻiga, odatda, aniqllovchi javob boʻlib keladi, lekin baʼzan hol ham shunday soʻroqqa javob boʻladi. Bunday hollarda gap boʻlagini belgilashning boshqa usullariga murojaat qilinadi.

Gap boʻlaklari gapni tashkil etgan sintaktik shakllarni toʻliq qamrab olmas ekan, demak, gapni boʻlaklarga gap boʻlaklari rukni ostida ajratish etarli asosga ega emas. Gapning semantik-sintaktik boʻlaklari tushunchasi shuni hisobga olgan holda kiritildi. Gapning semantik-sintaktik boʻlaklari doirasida asosiy rol ni odatdagi gap boʻlagi oʻynaydi. Shuning uchun gap boʻlagini aniq bilib olish muhimdir.

Gapning tuzilish asosini ega va kesim munosabati tashkil etadi. Odatda gap ega va kesim birikuvidan yoki bosh boʻlakning bir oʻzidan iborat boʻladi. Bu boʻlaklarsiz gap tushunchasini tasavvur qilish qiyin. Bosh boʻlaklar gapni tashkil etishda muhim rol oʻynaydi. Ular gapning asosiy yadrosi hisoblanadi. Gap uchun

zarur bo'lgan predikatsiya odatda bosh bo'laklar yordamida ifodalanadi. Bosh bo'laklar ega va kesimdan iboratdir.

Ega bilan kesim o'zaro zich bog'langandir. Ega odatda kesim orqali, kesim esa ega orqali belgilanadi: ega bilan kesim bir biriga nisbat berib tayin etiladi. Biror so'zning ega deb ko'rsatilishi kesimga nisbat, kesim deb ko'rsatishi esa egaga nisbatdir: *Tarlon bir yulqinib, to'dadan uzib chiqdi.*

Ikki sostavli gaplarda bosh bo'laklarning ikkovi ega ham, kesim ham ishtirok etadi. Bir sostavli gaplarda ega bosh bo'laklarning faqat bittasi mavjud bo'ladi. Lekin u ega yoki kesim deb ko'rsatilmaydi, chunki bir sostavli gaplarda nisbat beriladigan bunday bo'laklarning (yo ega, yo kesim) bo'lmaydi.

Gapda bosh bo'laklardan boshqa bo'laklar ham qatnashishi mumkin, lekin ular gapni tashkil etishda gap hosil etishda asosiy rol o'ynamaydi. Shuning uchun ular gapning ikkinchi darajali bo'laklari deb yuritiladi.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari bosh bo'laklarni aniqlash ularning ma'nosini aniqlashtirish, fikrni to'ldirish uchun xizmat qiladi. Ikkinchi darajali bo'laklar, o'z vazifalariga ko'ra, 3 xil bo'ladi: to'ldiruvchi, aniqlovchi, xol. Har bir ikkinchi darajali bo'lakning o'z leksik-semantik va grammatik xususiyatlari bor.

Ikkinchi darajali bo'laklar gapda ega va kesim bilan bog'liq holda, u bilan birga yashaydi. Ular ega va kesimni aniqlab keladi, shuningdek, bir ikkinchi darajali bo'lak boshqa bir ikkinchi darajali bo'lakni aniqlab kelishi mumkin. Lekin shunda ham, bu keyingi aniqlangan ikkinchi darajali bo'lak ega yoki kesimga tobe bo'ladi: *1) Yanagi uloq menga nasib etdi 2) Oqshom vaqti o'n kilo arpa bilan bir qop samonni aralashtirdim.*

Birinchi misolda ikkinchi darajali bo'laklarning biri (yanagi) egani aniqlab kelgan bo'lsa, ikkinchisi (menga) kesimni aniqlab kelgan. Ikkinchi misolda ikkinchi darajali bo'laklarning bir (o'n kilo) ikkinchisi (arpa), (bir qop) esa (samonni) aniqlab kelgan. Bu keyingi ikkinchi darajali bo'lgan (aralashtirdim) kesimga tobelanib bog'langan.

Demak, ikkinchi darajali bo'laklar bosh bo'laklar bilan bevosita yoki bivosita aloqador. Ular gap tarkibiga, uning tuzumiga, sostaviga bosh bo'laklar

yordamida kiradi. Ikkinchi darajali bo`laklar egaga bog`lanib, eganing sostavini, kesimga bog`lanib, kesimning sostavini kengaytiradi:

Telefon oldida o`tirgan militsionerlar o`rnidan turdi. Bu gapning sostavlarini va ulardagi bo`laklarning sintaktik aloqasini sixemada shunday ko`rsatish mumkin:

Ega sostavi: telefon oldida o`tirgan militsionerlar

Kesim sostavi: o`rnidan turdi.

Gapning sostavlari o`ziga xos grammatik xususiyatlarga ega bo`lish bilan birga, og`zaki nutqda maxsus ayiruvchi pauza yordamida bir– biridan ajratib turadi. Demak, gapning sostavlarga bo`linishi uning intonatsion bo`linishi bilan bog`liq. Masalan: *Men sir bermadim, talmovsiradim. Boisi, o`shanda o`n kun yotganim elga doston bo`ldi.* Gapning ega sostavi (o`shanda o`n kun yotganim)dan so`ng ajratuvchi pauza bor. Bunday pazani uning komponentlari orasida qo`llab bo`lmaydi.

Bosh bo`laklar bilan ikkinchi darajali bo`laklarning o`zaro munosabatida bosh bo`laklar hokim, ikkinchi darajali bo`laklar esa ularga tobe. Bosh bo`laklarning o`zaro munosabatida ega–hokim, kesim esa, unga tobe. Demak, ega mutloq hokim: u o`z sostavidagi ikkinchi darajali bo`laklarga xam, kesimga xam xokim. Kesim esa faqat o`z sostavidagi ikkinchi darajali bo`laklarga xokim. Gapdagi bu ikki bosh bo`laklardan boshqa elementlar ikkinchi darajali bo`laklardir. Ikkinchi darajali bo`laklar doim bosh bo`laklar bilan sintaktik aloqaga kirishgan bo`ladi. Chunki ikkinchi darajali bo`laklarning vazifasi bosh bo`laklarni aniqlash, ulardan anglashilgan fikrni to`ldirib kelishdir. Ikkinchi darajali bo`laklar bosh bo`laklar bilan zich bog`liq bo`lib, gapning strukturasiga shular orqali kiradi. Ega va kesimning sostaviga kiradigan so`zlar-bo`laklar qancha bo`lmasin gapda baribir, ularning birligi, yaxlitligi seziladi; bu elementlarning har biri yo eganing, yo kesimning mazmunini to`latish uchun xizmat qiladi (ba'zilar biri ikkinchisini aniqlash orqali). Ikkinchi darajali bo`laklar o`z funktsiyalariga qarab uchga bo`linadi: to`ldiruvchi, aniqlovchi va hol.

Ega va kesimni bosh bo`laklar deb, to`ldiruvchi, xol va aniqlovchini ikkinchi darajali bo`laklar deb ko`rsatilishi ularning birinchisi xokim, ikkinchisi esa ularga tobeligidagina emas, bosh bo`laklarning xokimligi, ikkinchi darajali bo`laklarning ularga tobeligi bularning o`ziga xos grammatik xususiyatidir. Bu xususiyat gap bo`laklarining nutqdagi funktsiyalari asosida kelib chiqadi.

Bosh bo`laklar ikkinchi darajali bo`laklarning ishtirokisiz, ayrim, mustaqil gapni tashkil eta oladi. *Bunday gaplar sodda gapning yig`iq tipini hosil qiladi: Qishloq tinchidi. Kim arizaboz? Bizmi?*

Ikkinchi darajali bo`laklar bosh bo`laklarsiz alohida to`liq gapni tashkil eta olmaydi. Ular gapda bosh bo`laklarga bog`liq holda qatnashadi. Ikkinchi darajali bo`laklar qatnashgan gaplar sodda gapning yoyiq tipini hosil qiladi. *Botir mirobning kolxoz umumiy majlisida gapirishini yodladim.*

Demak, sodda gaplar sostavida bosh va ikkinchi darajali bo`laklarning qatnashuviga qarab, 2 xil bo`ladi: yig`iq va yoyiq gap.

Yig`iq gaplar bosh bo`laklardangina tuziladi. Yoyiq gaplar esa ham bosh, ham ikkinchi darajali bo`laklardan tashkil topadi.

Yoyiq gaplarning ba'zilarida bitta ikkinchi darajali bo`lak qatnashsa, boshqalarda bir vaqtning o`zida bir necha ikkinchi darajali bo`lak qatnashadi: *Shunda uzun bir mashina jiring-jiring etib kelabardi.*

Grammatik bo`laklar bilan logik bo`laklar o`rtasida bir-biriga mos kelish holatlari ham, mos kelmaslik holatlari ham uchraydi. Logik jihatdan, ega ham, kesim ham o`ziga oid ikkinchi darajali bo`laklar bilan birgalikda bitta bo`lak hisoblanadi. Logika ikkinchi darajali bo`laklarni tan olmaydi. Fikrda faqat 2 bo`lak mavjud: fikr subekti va fikr predikati. Sub'ekt–fikr o`zi haqida berayotgan narsa tasavvurini bildiradigan bo`lak, predikat esa sub'ekt haqida aytilayotgan tasdiqni, belgi tasavvurini bildiradigan bo`lakdir. Gapda ham shularga mos keladigan ikki bo`lakning bo`lishi mumkin. Sub'ektga mos keladigan bo`lak– ega, predikatga mos keladigan bo`lak–kesim: *Men tushdim.* kabi. Demak, ikki sostavli yig`iq gaplarda logik bo`laklar bilan grammatik bo`laklar bir–biriga to`g`ri keladi. Ikki sostavli yoyiq gaplarda esa bunday moslik yo`q: *Shlyapali odam rayon*

*kattalarini yig`ibdi*. Bu gapda grammatik jihatdan 5 ta bo`lak bor: 1) odam– ega, 2) yig`ibdi– kesim, 3) shlyapali–eganing aniqlovchisi, 4) kattalarini- to`ldiruvchi, 5) rayonning- qaratqichli aniqlovchi.

Logik jihatdan esa 2 ta bo`lak bor: 1) Shlyapali odam– fikr sub'ekti, 2 ) rayon kattalarini yig`ibdi–fikr predikati. Bu ikki bo`lak gapning sostavlariga to`g`ri keladi: sub'ekt ega sostaviga, predikat kesim sostaviga to`g`ri keladi.

Gap tarkibida gap bo`laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydigan ifodalar ham bor. Bular gapga mazmun jihatdan bog`lansa ham, grammatik jihatdan bog`lanmaydi. Shuning uchun ular gap bo`lagi sifatida ajratilmaydi. Bunday ifodalar nutqda gap bo`laklaridan pauza bilan ajralib turadi. Bular tilshunoslikda kirish, undalma va kiritma qurilmalar deb yuritiladigan sintaktik hodisalardir.

Gap bo`laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydigan semantik-sintaktik birliklar ulardan o`ziga xos pauza bilan ajralib turadi. Shuning uchun ular boshqa gap bo`laklaridan vergul orqali ajratiladi. Gapning boshida kelsa, ulardan so`ng, o`rtasida kelsa, har ikki tomondan, boshida kelsa, ulardan oldin vergul qo`yiladi. Lekin bu ularning gap bo`laklari bilan hech qanday aloqaga ega emas, degani emas. Undalma, kirish va kiritmalar gapning boshqa bo`laklari bilan mazmunan aloqadordir. Ularning ma'no-vazifasi ham aslida shu bilan belgilanadi. Masalan, undalmalar nutq qaratilgan shaxs (predmet)ni bildiradi. Shu ma'noda u bir tomondan, gapning ta'bir joiz bo`lsa, predikativligi bilan aloqador bo`lsa, ikkinchi tomondan, shu gapda amalga oshiriladigan yoki amalga oshirilmaydigan ish-harakatning haqiqiy bajaruvchisi bo`lishi ham mumkin: Masalan: Yoshlar, fan sirlarini egallangiz. Harakatning bajaruvchisi grammatik jihatdan II shaxs ko`plikdagi olmosh(siz) bo`lsa-da, u yoshlarning ekvivalentidir. Demak, haqiqiy bajaruvchi yoshlardir. Kirish, undalmali gaplarda odatda ega yashiringan bo`ladi. Undalmaning bosh kelishik shaklida kelishi ham shu bilan izohlanadi. Undalmalar kesim bilan grammatik jihatdan moslashmasligigina ularni grammatik ega emas, balki undalma ekanligini ko`rsatib turadi.

Kirishlar, kiritmalar ham gapning predikativ qismi va gap bo`laklari bilan mazmuniy aloqadordir. Kirishlar so`zlovchining gapning predikativ qismida

ifodalangan mazmunga sub'ektiv munosabatini bildirsa, kiritmalar ana shu qismni yoki uning biron bo'lagi ma'nosini qo'shimcha ma'lumot bilan boyitadi.

Ana shularga ko'ra, undalma, kirish va kiritmalar ham gapning semantik-sintaktik bo'laklari hisoblanadi.

Gap bo'lagi vazifasini so'zlar bajaradi. Bunda mustaqil so'zlar nazarda tutiladi. Yordamchi so'zlar mustaqil so'zlar bilan birgalikda gapning u yoki bu bo'lagi vazifasida keladi. Gapning bo'lagi ba'zan bir so'z bilan ifodalansa, ba'zan ikki yoki undan ortiq so'z bilan ifodalanadi: *Tomog'imdan tuz o'tmadi. O'sish uchun go'sht topshirishdan foydalanmoqchi bo'libdi.* Birinchi misoldagi gapda hari qaysi so'z bir gap bo'lagi vazifasida kelgan. Ikkinchi gapda go'sht topshirishdan birikmalarining har qaysisi bir gap bo'lagi vazifasida kelgan.

Gap bo'laklari, o'z tuzilishiga ko'ra 2 xil bo'ladi: oddiy bo'laklar va murakkab bo'laklar.

Oddiy bo'laklar yakka so'z bilan ifodalanadi. Bunda qo'shma, juft so'zlar ham bitta leksik birlik sifatida qaraladi va gapning yakka so'z bilan ifodalangan bo'lagi sanalaveradi.

Murakkab bo'laklar bir-biri bilan bog'langan 2 yoki undan ortiq so'z bilan ifodalanadi. Murakkab bo'laklar quyidagi hollarda ro'y beradi.

1) Turg'un bog'lanmalar gapning murakkab bo'lagi vazifasida keladi. Turg'un bog'lanmalar birdan ortiq so'zning o'zaro bog'lanishidan tuzilsa ham, mamunan va shaklan yaxlit bo'ladi Ular nominativ vazifani bajarib, nutqqa yaxlit xolda kiritiladi: *Qarluqda otni zo'r biladigan bir sinchi chol bo'ldi.*

Turg'un bog'lanmalar 2 xil bo'ladi: to'g'ri ma'noli turg'un bog'lanmalar va ko'chma ma'noli turg'un bog'lanmalar. Bular ko'p jihatdan o'zaro o'xshash bo'lsa ham, ba'zi xususiyati bilan bir- biridan farq qiladi.

To'g'ri ma'noli turg'un bog'lanmaning ma'nosi uning tarkibidagi so'zlarga xos ma'nolarning oddiy yig'indisidan iborat bo'ladi va butun bog'lanmadan yaxlitligicha to'g'ri ma'no kelib chiqadi: *Aha, hammasiga AQSh imperialistlari aybdor, o'rtoq Qurbonov.*

Ko'chma ma'noli turg'un bog'lanmaning ma'nosi uning tarkibidagi so'zlarga xos ma'nolarning yig'indisi sifatida emas, balki shu ma'nolar ustiga qurilgan ikkilamchi, ustama ma'no sifatida yuzaga keladi va shu bilan bir vaqtda ko'chma ma'no bo'ladi: *Ayol zoti og'zi bo'sh bo'ladi.*

2. Erkin bog'lanmalar xam gapning murakkab bo'lagini tashkil qilish mumkin. Bunda erkin bog'lanmadagi bir element gapdagi boshqa bo'lak bilan yakka xolda bog'lana olmaydi, bu o'rinda u o'zi aloqador bo'lgan so'z bilan bir butunlik hosil qiladi:

So'z birikmalarigina emas, hatto gapga teng qurilmalar xam bitta murakkab bo'lak vazifasida kela oladi. *To'lanboy Nizomidinjon ag'dargan yerga razm solib boshini saraksarak qilib qo'ydi.*

Birinchi punktdagi murakkab bo'laklar bilan ikkinchi punktdagi murakkab bo'laklar o'rtasida farq bor. Turg'un bog'lanma bilan ifodalangan murakkab bo'laklarni ichki bog'lanishi jig'atidan sintaktik tahlil qilib bo'lmaydi. Bu holda uning ma'nosi yo'qqa chiqadi. Erkin bog'lanma bilan ifodalangan murakkab bo'lak-larni ichki qurilishi jihatidan sintaktik tahlil qilish mumkin. Bu ikkilamchi tahlil hisoblanadi. Masalan, quyidagi erkin bog'lanmali murakkab bo'lak ikkilamchi tahlilda shunday qismlarga bo'linadi : *To'rt tomoni baland uy ayvonlar bilan o'ralgan hovlida nafas bo'g'ila boshladi.* (Oybek). To'rt–aniqlovchi, tomoni– aniqlanmish, uy –ayvonlar bilan – to'ldiruvchi, o'ralgan – to'ldirilmish, baland – aniqlovchi, uy ayvonlar–aniqlanmish, to'rt tomoni – ega, o'ralgan – kesim.

Xulosa qilib aytganimizda, gap bo'lakalarining sintaktik tuzilishini tashkil qilishdagi roli bir xil emas. Ayrim bo'laklar gap tuzilishida markaziy o'rinni egalaydi. Ammo ayrim bo'laklar esa gap tuzilishidan etakchi rol o'ynamaydi. Shunga muvofiq gap bo'laklari an'anaviy tilshunoslikda ikki darajaga bo'lib o'rganib kelinmoqda:

- a) bosh bo'laklar;
- b) ikkinchi darajali bo'laklar.

Gap boʻlaklarining darajalanishi haqida hozirgi kunda boshqa fikrlar ham aytilmoqda. Darajalanish tamoyillari yangicha talqin etilmoqda (A. Sayfullaev).

Bizningcha gap boʻlaklari darajalanishning quydagi tamoyillari mavjud:

1. Gap tuzilishida qatnashgan boʻlaklar leksik ma'no ifodalaydi. Masalan, ega va kesim leksik- semantik xususiyatiga koʻra shaxs, predmet, belgi, miqdor, harakat-xolat, oʻrin-joy ma'nolarini bildiradi. Undalma leksik-semantik xususiyatiga koʻra shaxs, jonli va jonsiz predmetlarga va oʻz-oʻziga undash ma'nosini bildiradi;
2. Gap tuzilishida qatnashgan boʻlaklarning turli soʻz turkumlari bilan ifodalanishidir. Masalan, ega va undalma ot, otlashgan soʻzlar bilan ifodalanadi;
3. Gap tuzilishida qatnashgan boʻlaklarning oʻzaro semantik va grammatik bogʻlanishi. Masalan, ega bilan kesim bilan moslashuv, undalma gap boʻlaklari bilan muvofiqlashuv orqali bogʻlanadi;
4. Gap tuzilishida qatnashgan boʻlaklarning gapdagi vazifasidir. Ma'lumki, gapdagi boʻlaklar vazifasiga koʻra, tishunoslikda, bosh va ikkinchi darajali boʻlaklarga ajratiladi. Undalma va kirishlarni semantik xususiyati, grammatik ifodalanishi, tarkibi, semantik – grammatik bogʻlanishi va gapdagi vazifasiga qarab, gapning murakkablashgan boʻlaklari deyish mumkin.

Har qanday qurilma gap boʻlib kelishi uchun minimal shaklga ega boʻladi. Bu minimal shakl gapning sruktura asosi orqali ifoda qilinadi.

Gapning sruktura asosi gapning bosh boʻlaklaridan iboratdir. Demak, bosh boʻlaklar har qanday gapning asosini tashkil qiladi. Bosh boʻlaklar ega va kesimdan iborat boʻladi. Gapdagi qolgan boʻlaklar odatda bu ikki boʻlakdan biriga bogʻlanadi. Bu ikki boʻlakka bogʻlangan elementlar shu boʻlaklarga tobe boʻladi. Demak, ega va kesim oʻziga bogʻlangan soʻzlar ustidan hokim boʻlib, ularda boshqa holat yoʻq: bular hech qanday boʻlakka tobe emasdir.

Gapdagi ikki sostavning hokim elementlaridan boshqa elementlari ikkinchi darajali boʻlakdir.

II. BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA GAPNING BOSH BO'LAKLARINI O'RGATISH

2.1. EGANING BELGILI VA BELGISIZ QO'LLANISHI

Gap ikki a'zoning—ega va kesim qismlarining o'zaro munosabatidan tashkil topadi. Bosh bo'laklar ega va kesimdan iborat. Lekin bu ikki bo'lak munosabati haqida tilshunos-ligimizda turli xil fikrlar aytiladi va aytilmoqda. Bu fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagi munosabatlarni sanab o'tish mumkin:

1. Gapda absolyut hokim bo'lak ega sanaladi. Ega o'z tarkibiga ham hokimlik qiladi. Bu narsa gapning kommunikativ tomonini aks ettiradi.

2. Ega va kesim teng xuquqli bosh bo'lak hisoblanadi. Bu nuqtayi nazar hukm ikki a'zoning—sub'ekt va predikat qismlarining o'zaro munosabatidan tashkil topadi, degan mantiqiy nazariyaga asoslanadi.

3. Kesim absolyut hokim bo'lakdir. Gapning eng muhim tashkil etuvchi konstruktiv bo'lagi kesim bo'lib, u gapni shakllantiruvchi vositalar—kesimlik shakllarini o'zida mujassamlashtiradi.

Ega kesim bilan mustahkam aloqada. Uning ma'nosi, vazifasi, o'rni kesim orqali reallashadi. Xuddi shuningdek, kesimning mohiyati, formasi ega yordamida belgilanadi. Ega nutq predmetini, fikr ob'ektini, gapning mavzusini bildirsa, kesim shu mavzu haqidagi yangilikni, nutq predmeti, fikr ob'ekti to'g'risidagi bayonni bildiradi: *Ch a v a n d o z l a r chuh-chuh, deya otlarini uloqqa chorladi. Bir gapni eshitib, ko'klam kayfiyatim q i sh bo'ldi. B o y ch e ch a k l a r ketidan qoraqoshlar ochildi. O t l a r ashula bo'ldi.*

Birinchi gapda ega (chavandozlar), kesim (chorladi) bilan ifodalangan harakatni bajaruvchi shaxs, ikkinchi gapda ega (ko'klam) kesim (qish bo'ldi) dan anglashilsa belgiga qarashli bo'lgan predmet, uchinchi gapdagi ega (otlar) kesimdan (ashula bo'ldi) anglashilgan ob'ekt ma'nolarini bildiradi.

Ko'rinib turibdiki, ega bilan kesim lingvistik adabiyotlarda bosh bo'lak sifatida tan olinsa ham, lekin gap qurilishida kesim birinchi o'rinda turadi.

Kesimning gap qurilishidagi etakchilik roli turkiy tillarda yaqqol ko`rinadi. Bunday tillarda kesimsiz gap deyarli ishlatilmaydi.

Ega gapning bosh bo`laklaridan biri bo`lib fikr ifodasida, gap tuzumida alohida o`rin tutadi. U gapning nima haqida aytilganini, fikrning nima to`g`rida bayon etilganini ko`rsatuvchi bosh bo`lakdir. Ikki bosh bo`lakli gapning fikr, hukm qarashli bo`lgan shaxs, narsa-hodisani bildiruvchi mutlaq hokim bo`lagi ega deyiladi. Ega kim? nima? qaer? so`roqlaridan biriga javob bo`lib, bosh kelishik formasida keladi. Gap tarkibidagi eganing mavjudligi kesim vazifasida kelgan so`zning ma'nosi bilan emas, balki kesimlik grammatik shaklining, jumladan, uning tarkibidagi shaxs–son ma'nosi bilan bog`liqdir. Ega kesimlik categoryasi tarkibiga kiruvchi shaxs–son ma'nosini muayyanlashtiradi. Shu sababli ega gapning sintaktik tuzilishiga bevosita aloqador qism gap kengaytiruvchi deb baholanishi lozim. Grammatik shakl valentligini voqelantiruvchi vositalardan biri-gap kengaytiruvchi gapning butun mazmuni, xususan (Rm) ma'nosi bilan uzviy bog`liqdir.

Ega gap kesimini shakllantiruvchi kesimlik categoryasi (Rm) da mujassamlangan (R) shaxs–son ma'nosini muayyanlashtiruvchi, ochib beruvchi gap kengaytiruvchisidir. Eganing kesimlik categoryasi–(Rm) tarkibidagi (R) shaxs–son ma'nosini muay-yanlashtiruvchi, oydinlashtiruvchi bo`lak ekanligi (Pm) III shaxs ma'nosi va shaklida kelgan hollarda yorqin namoyon bo`ladi: Yozdi. gapida III shaxs ma'nosi juda keng, u nutqda aniqlashtirishni talab qiladi. Masalan: Gulnora yozdi va Ma'rifat yozdi kabi.

Grammatik jihatdan ega boshqa bo`laklar ichida mutloq hokim vaziyat egallaydi. U o`z sostavidagi bo`laklarni ham, boshqa sostav hisoblangan kesimni ham o`ziga ergashtirib keladi, lekin o`zi hech qanday bo`lakka tobe bo`lmaydi. Bu narsa uning grammatik shaklida ham ko`rinadi. Ega odatda bosh kelishik shaklida qo`llanadi. Ega vazifasida ba'zan chiqish kelishigidagi so`z qo`llanishi mumkin. – *Ana shunday ovoqli jonlilardan barimizda bor!* Bunda butun bilan bo`lak (qism) munosabatini ifodalaydigan sintaktik konstruktsiyaning bo`lak komponenti aytilmay qolgan. U gapning umumiy mazmunidan, tuzulishidan anglashilib turibdi.

Bo'lakni bildiruvchi so'zni tiklasak, haqiqiy ega kelib chiqadi va u bosh kelishik formasida ekanligi ma'lum bo'ladi:... bizda ana shunday jonlilardan (qo'ylardan) namunalar bor kabi. Demak, bosh kelishik eganing asosiy grammatik formasidir.

Ega vazifasida kelgan so'z egalik va ko'plik affikslarini qabul qila oladi. Ba'zan bu so'z -niki affiksini olgan bo'ladi: -Tarlonniki halol! Tarlonniki halol! Bu hodisa aslida qaratuvchi va qaralmish munosabatini ifodalaydigan sintaktik konstruktsiyaning qisqarishidan tug'ilgan. Bunda qaralmish vazifasidagi so'z tushib qolib, uning vazifasini ham qaratuvchi so'z ustiga oladi: Tarlon otniki halol kabi.

Ega shu gapdagi fikr o'zi haqida borayotgan, belgisi kesim tomonidan aniqlanadigan predmetni ko'rsatadi. Egadan ang-lashilgan predmet-hodisa kommunikatsiya predmeti bo'lib, uning ma'nosi har xil:

1. Kesimdan anglashilgan ish-harakatning bajaruvchisini bildiradi: bajaruvchi shaxs yoki jonli, jonsiz mavjudot bo'ladi. Masalan: *Ch a v a n d o z l a r otlarni yalang'ochladi. T a r l o n bir erda turolmay qoldi. Ammo S a f a r ch a v a n d o z mehmonxonaga jo'nadi. U y b e k a s i qozon osdi. M e n qamchini sopidan tishlab oldim. U l o q erdan qimirlamadi. S e r k a uzib-uzib ma'radi.*

2. Kesimdan anglashilgan holat tegishli shaxs, jonli mavjudot, jonsiz narsalarni bildiradi. Masalan: *U l o q erdan qo'zg'olmadi. T e s k a r i s i yaltiroq, sirpanchiq bo'ladi. Ch a v a n d o z l a r dastlabki shashtidan qaytdi, otlar shashtidan qaytdi. Tarlonni otlar t o' d a s i surdi. B o'y n i xuddi ko'zoynakli ilon misol gajak-gajak bo'ladi! Birodarlar, j i y r o n – malla ot bo'ladi. Chavandoz o v o z i nordon-nordon bo'ldi, ammo xushta'm bo'ldi. Mamat ichkaridan uyquli ko'zlarini uqalab-uqalab keldi.*

3. Kesimdan anglashilgan jinsning turini bildiradi. Masalan: *Olganimiz bor-yo'g'i bitta s e r k a bo'lsa. Birodarlar, e sh a k yiqitsa tuyog'ini to'shaydi, o t yiqitsa, yolini to'shaydi.*

4. Kesimdan anglashilgan belgining egasini bildiradi: *Q o r a l i k - ko'pkarining eng mushkuli, eng qiyinidir.*

5. Mavjudlik sub'ektini bildiradi: *Shu Tarlonda ikkita yu r a k bor. Birodarlar, otning sh a m o l i bor. Birodarlar, uloqning h a v o s i bor. Qo`chqorday-qo`chqorday o` g` i l l a r i bor. O`g`illarimizga xo`rozqand, qog`ozida k u c h u g i b o r q a n d, teshikkulcha oldim.–Shu, bir kechasi mendan beshbattar iyig`i chiqqan b i r k a l keldi. Yonida ikkita sh a p k a –d a bor....*

6. Miqdor sub'ektini bildiradi: *Birovlab sanasa yuzlar bo`ldi.*

7. O`rin-joy ma'nosini bildiradi: *NATO m a m l a k a t l a r i Evropada qanotli raketa joylashtirayapti. D a sh t bir-biriga ulashib ketgan adirlar oralig`ida bo`ldi.*

Qiyoslang: *B i r o d a r l a r, haq saqlasa balo yo`q, haq qarg`asa davo yo`q! B i r o d a r l a r, o`zing yaxshi-olam yaxshi, o`zing yomon-olam yomon!* Bularning birinchisi kesim bilan moslashuv aloqasida kelgan bosh kelishikdagi so`z-ega; ikkinchisi-kesim bilan moslashuv aloqasiga kirmagani undalmadir.

Kesim bilan moslashuv aloqasiga kirmagan, lekin bir qarashda bosh kelishikdagi egani eslatadigan quyidagi sintaktik shakllar ham ega emas, balki vositasiz to`ldiruvchidir. *Tarlondan k o` z uzmadim. Chol Tarlonni aylanib ko`rdi. Enkayib, ko`zlariga qarab ko`rdi. O`zicha, b o sh irg`adi. –Menga qara, el chavandozi, -dedi. –Shu otni menga sotmaysanmi? Yigirma q o` y berman. Tarlon kamarda o`n kun och yotdi, ana shu xayolimdan o`tdi. Ammo cholga s i r bermadim.*

Eganing qo`llanishida quyidagi o`ziga xos holatlar mavjud:

1. Ega to`ddan ajratilgan qismni bildirganda, to`daning butun nomi ko`pincha chiqish kelishigidagi so`z bo`ladi. Kesimni bildiruvchi so`z qo`llanmasa, bu vaqtda butun nomi chiqish kelishigidagi so`z go`yo ega vazifasida qo`llangandek tuyuladi. Masalan: Bizning jamoada hamma millatdan bor: rusdan ham bor, armanidan ham bor. Bunda chiqish kelishigidagi so`zdan keyin bosh kelishikdagi so`z qo`llansa, ega odatdagi holatda ifodalangan bo`ladi-shu so`z ega bo`ladi, qo`llanmasa, bunday gap bir bosh bo`lakli bo`ladi.

2. Shaxs jihatdan bir xil bo`lganda:

a) ularning har biri kesim bilan bevosita bog`lana oladi, bunday holat egalarda 3-shaxs ma'nosi ifodalanganda sodir bo`ladi. U va Karim keldi.

b) egalar kesim bilan yakkama-yakka bog`lana olmaydi, faqat birikkan holdagina birikadi, har ikkalasi bir butunlikda ega sanaladi: U bilan Karim borishdi. Buning asosiy sababi kesimning jamlik, birgalik anglatishidir. Bu hodisa oddiy gaplarda ham uchraydi: Alisher Navoiy va Zahiriddin Bobur butun dunyoga tanilgan mashhur o`zbek shoirlaridir.

2) Shaxs jihatidan har xil bo`lganda, uyushuvchi elementlar birgalikda ega sanaladi: Kesim 1-yoki 2-shaxsning ko`pligini ko`rsatadi. Men va sen keldik. Bunday o`rinlarda ko`pincha umumlashtiruvchi so`z qo`llaniladi. Men va u-ikkovimiz keldik. Bu so`z kesim bilan moslashgan bo`ladi. Shunga ko`ra asl ega ana shu so`zdir. Umumlashtiruvchi so`z bo`lganda, ular uning izohlovchisi sanaladi. Umumlashtiruvchi so`z ega vazifasida qo`llansa, avvalgi elementlardan biri-kesim bilan shaxs jihatidan bir xil bo`lgani ifodalanmasligi ham mumkin.

Biz ikkimiz keldik tipidagi gaplarda, biz ikkimiz so`zlari ega sanaladi. Bular aslida qaratuvchi-qaralmish aloqasiga to`g`ri keladi. Ular ikkalasi keldi. Ularning ikkalasi keldi. Hozirgi tilda esa ular ikkalasi izohlovchi - izohlanmish aloqasiga teng. Biroq ba'zan ikkinchi element ajratilgan bo`lishi ham mumkin. Ular, ikkalasi, keldi. Shuningdek, bunday konstruksiyada (ular ikkalasi keldi) o`rniga qarab birinchi element ega, ikkinchi element hol vazifasida ham kelishi mumkin.

Ega ikki bosh bo`lakli gapning tavsiflovchi sintaktik kategoriyadir. Chunki ega ikki bosh bo`lakli gapning mutlaq hokim bo`lagidir. Boshqa barcha gap bo`laklari bevosita yoki bivosita egaga tobelanib, uni izohlash, aniqlash «tushuntirish»ga xizmat qiladi. Shuning uchun ega vaziyatida belgi (keng ma'noda) bildiruvchi so`z emas, predmet nomini bildiruvchi so`z-ot keladi yoki otlashgan, ot xarakteridagi leksik vositalar keladi.

Eganing mutlaq hokimligi, boshqa biron bo`lakka tobe emasligi uning ma'no vazifasi bilangina emas, sintaktik shakl-bosh kelishik formasida kelishi bilan ham belgilanadi. Demak, bosh kelishik shaklidagi ot yoki otlashgan so`zlar ko`proq ega vazifasida qo`llanish bilan xarakterlanadi. Quyidagilar buning isbotidir:

1. *Ch o l mujmaltob bo`ldi* - bosh kelishikdagi otlar.
2. *Bunda zo`rlar z o`r i, otlar oti uloqqa talpinadi.* -bosh kelishikdagi otlashgan sifat.
3. *Bakovul zotlarni aytdi: - Bir juft kalish, o`n s o`m i bor! Ol! B i r o v-ya r i m duch keldi, degan hadik bilan men oldinda yurdim.*-bosh kelishikdagi otlashgan son.
4. *Uloqni na o`z i oladi, na birovga beradi. M e n oldimdagi serka junini og`ritib-og`ritib tortdim.* - bosh kelishikdagi olmosh.
5. *T a l p i n i sh l a r samara bermadi* -bosh kelishikdagi harakat nomi.
6. *K o`p l a r ko`pkaridan qo`lini yuvib, qo`ltiqqa urib ketdi.*-bosh kelishikdagi otlashgan ravish.
7. *Yetganlari uloqni yulib olomadi.* -bosh kelishikdagi otlashgan sifatdosh bilan va hakoza.

Ega qanday so`z turkumi bilan ifodalanishi jihatidan quyidagicha bo`ladi:

1. Ot ega. Ot o`z leksik grammatik ma'nolariga ko`ra ega vazifasida qo`llanishiga juda mos so`z turkumidir. Gapda turli semantik guruppaga mansub otlar ega bo`lib kela oladi:

1) Atoqli otlar ega vazifasida: *Eron shohi P a h l a v i y yashirin buyruq berib, bir kinoteatrni yoqib yuboribdi. N a z i r j u v o z k a sh ko`pkarini Olmako`z boytalini minib keldi. T a r l o n i m i z bir boshqa bo`lib qoldi! S a m a d ch a v a n d o z ko`pkarini olgan-alganini –oxirini oldi. O l m a k o`z hurpayibdi, quloqlarini dikkaytiribdi, yollarini hurpaytiribdi, dumlarini tikraytiribdi.*

2) Turdosh otlar ega vazifasida: *O`zi, kuyov bo`ladimi? Juvozkash bilagi bilan betini pana qilgan bo`ldi. Kula berib-kula berib, ichlarim og`rib qoldim.*

3) Aniq ot ega vazifasida: *Ch a v a n d o z l a r mening yo`limga qarab o`tirmaydi. O t l a r ashula bo`ldi! Etikni mol charvisi bilan moylab turaman. Shunda s u v, q o r, s o v u q o`tmaydi, yirtilmaydi. O d a m l a r qishloq tarafga qaradi. Qishloqdan ikki o t l i q keldi. U l o q erdan qo`zg`oldi.*

4) Mavhum ot ega vazifasida: *Yu r a g i m tovonimga tushib ketganday bo`ldi. H u sh i m boshimdan uchdi. Bir-biriga a h l bo`ldi. N a f s qurg`ur yomon-da! K o` n g l i m g`ash bo`lib yuradi.*

5) Yakka ot ega vazifasida: *O y tug`adi, o`ttizida to`ladi. Yigitning b o sh i ikkita bo`lmaguncha, moli ikkita bo`lmaydi. O n a m i z taptaqir kallamni ushlab-ushlab ko`rdi. Sh o i r kitob bitadi.*

6) Jamlanuvchi ot ega vazifasida: *E l qo`y-echkilarini haydab keldi. Jo`ra bobo naryog`ida turgan t o` d a oldiga bordim.*

2. Sifat ega: *Sifat ko`pincha otlashganda ega vazifasida keladi: Chavandoz bova! –dedi. Oshingni esa-da m a r d esin, boshingni esa-da m a r d esin! Birodarlar, b o y s u n l i k l a r qitmir el, baxil el ichiqora el! B i r i m o n s i z adolatni bo`g`sa, yo`limizni chap solamiz.*

Bunda sifat otning grammatik ko`rsatkichlarini oladi va predmetni uning belgisi orqali anglatadi. Ba'zan sifat qaralmish vazifasida kelib ot singari qo`llaniladi va o`zidan oldin kelgan qaratqich kelishigidagi predmetning turini, bir qismini belgisi orqali bildiradi.

Belgining nomi ma'nosida qo`llangan sifatlar ega vazifasida ot singari ishlatiladi:

3.Son ega. Son ham ko`pincha otlashganda ega vazifasida keladi: *Uchinchisi menda ketdi.*

4. Olmosh ega. Olmosh ot, sifat va sonning o`rniga almashinib qo`llaniladigan so`z turkumidir. Shuning uchun olmoshlar ega vazifasida kelishida 2 ta xususiyat ko`zga tashlanadi:

1) Ot o`rnida qo`llaniladigan olmoshlar odatdagi ega vazifasini bajaradi: *O` z i m uloqqa qarab yurdim. M e n olisdan qo`l siltadim. Adolatni k i m bundayin xor qilyapti? B i z – o`zimiz! M e n, s i z, Fayzulla chavandoz, Hamdam chavandoz. O`zlaringiz odam bo`lib nima qilib yuribsizlar.*

5. Harakat nomi ega. *Bozorlab keluvchilar ot-ulovlarini ana shu erga bog`lab qo`yadi.*

6. Sifatdosh ega. Sifatdosh ko`pincha otlashganda ega vazifasida keladi: *O`ti r g a n l a r shahodat barmog`ini likillatib, o`rtada laylakqushday lo`killab yurgan qizni imladi.*

7. Frazologik birikmalar bilan ifodalangan ega: Buni qisqacha ibora ega deb atash mumkin:

8. Sintaktik birliklar bilan ifodalangan ega: *Xotinsiz o`tish xato, bolasiz o`tish jafo. Otlarning otxonaga olib o`tilmagani Ziyodullani taajjublantirdi.*

Eganing sanab o`tilgan morfologik shakllari uning shakliy paradigmasini tashkil etadi.

Ega mazmun tomonidan morfologik ma'no va sintaktik ma'nolar qarama-qarshiligi va birligidan iboratdir. Eganing sintaktik ma'nosi sub'ektdir. Sub'ekt umumlashgan ma'no sifatida bir kecha morfologik ma'nolar orqali namoyon bo`ladi.

Ega shakl va mazmun qarama-qarshiligi va hamda birligidan iborat, butunlik iborat bo`lib, ular o`zaro munosabatdadir.

Eganing sintaktik shakli sub'ekt sintaktik ma'nosini ifodalaydi.

Ba'zan teng aloqadagi bir xil shaxsni ko`rsatuvchi bir necha so`z butunicha yoki yoki ayrim-ayrim vazifasida keladi.

1)Agar kesim birlikda bo`lsa, bu so`zlarning har biri alohida- alohida sanaladi. Bunda odatdagi uyushiq bo`lak hosil bo`ladi: Salim va Hakim keldi. – Salim keldi. Xakim keldi.

2)Agar kesim ko`plikda yoki birlik daraja shaklida bo`lsa, bu so`zlar yaxlitligicha ega sanaladi. *Onamiz bilan ayolimiz xo`rak olib keldi.* Bu keyingi hol hozirgi zamon o`zbek tilida tobora faollashmoqda.

Teng aloqadagi turli shaxsni ko`rsatuvchi bir necha so`zyaxlitligicha ega vazifasida kelganda kesim ko`plik shaklida bo`lib, yo I shaxsni yo II shaxsni ko`rsatadi ( bir so`z bir vaqtning o`zida turli xil shaxsni ko`rsata oladi)

1.Agar bunday egalar qatorida I shaxsni ko`rsatadigan so`z qatnashgan bo`lsa, kesim ham shu shaxsda bo`ladi: Men, sen va u bordik. Siz bilan men ko`rdik kabi.

2. Agar bunda egalar qatorida I shaxsni ko'rsatadigan so'z qatnashmay, II shaxsni ko'rsatadigan so'z ishtirok etgan bo'lsa, kesim ham shu shaxsda bo'ladi: Axir, baribir bir kun emas, bir kun yo u senga, yo sen unga yo'l burishga majbur bo'lasizlarku!

Turli shaxsdagi egalar bilan yordamchisida bog'langanda ularning biri tushib qolishi mumkin (Odatda shaxs jixatdan kesimga muvofiq bo'lgan ega tushib qoladi): Orif bilan (men) o'rin- ko'rpani yig'ib, ichkari olib kirib qo'ydikda, yuvinishga ketdik (G'ayratiy). Bunday gaplarda asli ega biz(lar) yoki siz (lar) so'zlari bo'lishi kerak. Chunki kesim odatda shu so'zlarga mos keladigan shaklda qo'llanadi. Men, sen va u qo'shilmasa ham men bilan sen qo'shilmasi ham, u bilan men qo'shilmasi ham biz (lar) olmoshiga, u bilan sen qo'shilmasi esa siz (lar) olmoshiga to'g'ri keladi: Biz – men, sen va u keldik. Biz – u bilan men keldik. Biz – sen bilan men keldik. Siz – u bilan sen bordingiz. Bunda biz va siz olmoshlari ega, uyushiq bo'laklar esa izohlovchi hisoblanadi. Ba'zan uyushiq izohlovchidan keyin umumlashtiruvchi so'z ham qo'llanadi. Bular o'zaro bir – biriga teng hodisalarni bildiradi: Biz – Zohid bilan men ikkovimiz cho'milishga bordik. Bunda biz olmoshi ega, Zohid bilan men qo'shilmasi eganing uyushiq izohlovchisi, ikkovimiz so'zi esa uyushiq izohlovchining izohlovchisidir.

Ba'zan uyushiq izohlovchining biri “yashirinadi” va u keyingi izohlovchi bilan qo'shilib ketadi: Biz, Zohid bilan ikkovimiz, cho'milishga ketdik. Bunda bilan ko'makchisi – bo'g'lovchisi ham aytilmay qolishi mumkin: Biz Botirali ikkimiz, u to'qayga ketayotgan tongda shunday ahd – paymon qilgan edik. (g'. g'ulom). Bunday konsturuktsiyalarda uyushiq izohlovchilar qo'llanmasligi ham mumkin: Biz ikkovimiz bordik. Bunda biz – ega, ikkovimiz- izohlovchi. Biroq, Bizning ikkovimiz bordik kabi gaplarda bizning ikkovimiz birikmasi – ega.

Yuqoridagi konsturuktsiyalarda biz yoki siz olmoshlaridan bo'lgan egalar aytilmay qolishi mumkin: *Orif bilan ikkimiz Gulamdondan bir qarich ayrilgimiz kelmasdi. Razzoq ikkimiz kelamiz.*

Bu misolarda biz olmoshi qo'llanilmagani uchun, uning izohlovchilari bo'lishi Orif bilan ikkimiz, Razzoq ikkimiz so'zlarini ega deb hisoblash mumkin.

Biroq ochilib turgan gullarning oldiga qo'yilgan so'rida bir necha kishi choy ichishib o'tirgan edik (qari Niyoziy). Gapida ega ayrim ifodalanmagan biz so'zidir (bir necha kishi birikmasi – ega emas).

Ba'zan egadan keyin unga shaxs va son jihatidan mos keladigan o'z so'zi qo'llanadi. Bu so'z egani ta'kidlash uchun xizmat qiladi: Men o'zim tez – tez xabar olib turaman. Biroq mening o'zim boraman tipidagi gaplarda mening o'zim birikmasi – ega.

Biz hammamiz keldik kabi konsturuktsiyalar xam yuqoridagilarga bir muncha o'xshab ketadi. Bunda biz–ega, hamamiz izohlovchidir. Biroq bizning hammamiz keldik gapida bizning hammamiz birikmasi – ega.

Mening xalqimni ro'yobga chiqargan, shad va baxtiyor qilgan, non va osh, kiyim va ust bosh, e'tibor va obro' bergan narsa – bu do'stlikdir kabi misolarda ajratilib ko'rsatilgan so'zlar yaxlitligicha egadir; Bu so'zi ta'kidlovchi element bo'lib, ega bilan kesim sostavini qat'iy chegaralab ko'rsatadi. Bu hodisa odatda otli gaplarda uchraydi.

Gapda eganing qo'llanishi va qo'llanmasligining ma'lum sabablari bor:

1. Ega mazmun jihatdan ahamiyatli bo'lsa va shunga ko'ra, logik urg'u olsa hamma vaqt saqlanadi:

2. Logik urg'u egadan boshqa so'zga tushganda, maxsus ega ifodalanmasligi mumkin: *Ertalab ta'tillanib, otlandim. Lalmi dashtga yo'l oldim. Chavandozlar to'daga ot soldi. Otlarini qimtib, otlarini tizzalari bilan niqtadi, otlarini qamchimladi, otlarini uloqqa haydadi. Tarlonni qora ishga solmadim. Adirlarda o'ynoqlatib mindim. O'ynoqlatib-o'ynoqlatib qo'y boqdim.*

3. Kesimda shaxs-sonda ko'rsatuvchi grammatik formalar ishtirok etgan bo'lsa, ega tushib qolishi mumkin: *Ana shundan keyin chavandoz otni t u z a t a m a n d e s a, o'ziga jarb qiladi.*

Telpagimni kallamga bosib ushladim.

–O'quvchi Qurbonov, senga a y t ya p m a n!

Ko'roydin emish. Momosuluvlar ko'chasida telba bo'lib yurar e m i sh m a n.

Oyga mahliyo bo'lib-mahliyo bo'lib t e r- m i l i b m a n. O'yla-da imonsiz! Shu

haromliging o`zingga, o`zingga bo`lma, bola-chaqangga uradi, mana k o`r a s a n! Yomon bilan teng bo`lmayin, d e y m i z. O`zimizni bilmaganga olib o`t i r a m i z. Tilimizni t i s h l a y -m i z. Nimaga endi bari nimani xudoga s o l a s i z -l a r.

4. Buyruq gaplar ko`pincha egasiz qo`llaniladi. Chunki unda odatda kesim vazifasidagi fe'l shaxs–sonni ko`rsatib turadi: *Birodarlar otga minsang-boshingni o`yla, erga tushsang-otingni o`yla! Chavandozlar-ov! Gapimni o`ng qulog`ing bilan-da chap qulog`ing bilan-da, eshitib ol! Chilvir solma-bir! Bir-birovingni yomon gap bilan so`kma – ikki. Qamchi solma-uch! Yiqilgan chavandoz ustiga ot solma-to`rt! Ot qochganda ushlashga yordam ber-besh! Ol, ha –ol Bakovul tayinladi:*

5. Biror asarning, abzats yoki matning birinchi gapi odatda egali bo`ladi-yu keyingi gaplari esa egasiz qo`llanilishi mumkin: *R i x s i e v supada yonboshlab oldi. Qo`lini loyga urmadi. Hasharchilarga gap berib turdi. Endigi uloqni men olib chiqdim. Otlar oldimni oldi. Yo`limni yopib chopdi, yonlarimni yopib chopdi. T a r l o n joyida telbalarcha irg`ishladi. O`zini u yoqqa urdi, bu yoqqa urdi. Tasir-tusir er tepdi. Old oyoqlari orasiga tumshuq tiqdi. Qorniga tumshuq cho`zdi. Sag`riniga tumshuq cho`zdi. M e n oldiga tushdim. Tor yo`lakdan hovliga chiqdim. Keyin yana bir xonaga kirdim.*

Bu misollarda Rixsiev, Tarlon, men, kal katta so`zlari ega vazifasida kelgan. Ular birinchi gapda qo`llangani uchun, keyingi gaplarda tushirib qoldirilgan.

6. Ko`chirma gapli konstruksiyalarda avtor gapi ko`pincha egali bo`ladi: - *Aha, familiyangiz nima edi, uka? –so`radi R i x s i e v.*

-Uloq qo`lidan tushib ketdi, - dedi b a k o v u l.

-Yaxshisi, bunday qilamiz. Yo`lda oyoq ilamiz. Qishloqqa qorong`ilatib-qorong`ilatib kirib boramiz. Binoyimi?

-Binoyi, binoyi, -dedi ch a v a n d o z l a r.

Ana endi b a k o v u l ko`pkarining oxirini aytdi: -Eshitmadim demanglar, olgan-olgani! Olgan-olganiga shu uloqning o`zi, bir kilo yog`, bir kilo guruch, sabzisi bor! Ol!

7. Ko`chirma gaplar ba'zan egasiz qo`llanadi:

Kal katta qog'ozini to'lg'azib, olib ketdi. Xiyol o'tib. Ana qaytib keldi. –Tush oldimga! –dedi. -Bitir aka, bo'lgan ish bo'ldi, bo'yog'i sindi. Qo'ying, shu arizabozlikni, -dedim. Bir safargisida meni-da ergashtirib jo'nadi.

-Boshingdan o'tgan savdoni o'z tiling bilan o'zing aytib berasan,-dedi. Qabatimdagi hamidov muallimga yuzlandim.

Eh-he, paxtani qarang, paxtani! –dedim -O'lmang! –dedim. –Katta qiz bo'ling. Ayni kunlarda kal katta choyxonada yonboshlab yotar emish. Haqiqat yo'q, bu dunyoda haqiqat yo'q....-der emish.

8. So'roq gapda so'roqning kuchi egada bo'lsa, javob gapda esa saqlanadi:

-Bo'lmasa nima deyin?

-El qatori Ziyo dulla kal deya bering.

Birodarlar, sizga bir nima aytayinmi. Men araz urishni yaxshi ko'raaman! O'ylayin agar-a. Go'balak otning qaerida bino bo'ladi? Go'balak otning dumi ostida bino bo'ladi. Xalqning kam-ko'sti esa achib yotibdi. Xalqqa kim amaliy yordam beradi? Biz!

-Xo'sh qanaqa jarohat?

-Ikkovining yuzidan qon oqdi. Beqasam choponlik kalla qilib edi-da.

Kim-kim? Melisa? Xo'sh formadami?

-Esa-chi, kapitan katta. Melisalar shunday burchakda o'tirib choy ichdi.

7. Og'zaki so'zlashuvda nutq predmeti fikr ob'ekti situatsiyadan ma'lum bo'lsa ega maxsus ifodalanmaydi. Masalan: Ancha vaqtdan buyon tramvay kutib turgan kishilardan birining kelyapti degan gapida ega tushib qogan; bunda ega situatsiyadan nutq so'zlashib turgan vaziyatdan ma'lum bu: Bu tramvaydir.

8. Ayrim bir sostavli gaplarda fikr umumga–barchaga qaratilganligini (shaxs umumlashgan gap) uchun yoki harakatni bajaruvchi sub'ekt ko'pchilik hamma umuman odamlar deb hisoblanganligi (shaxsi noma'lum gap) uchun ega odatda qo'lanilmaydi: *Birodarlar, bizning surxonda mana bunday gap bor: ot olsang, Oboqlidan ol, ayol olsang, Irg'alidan ol!*

Bir bosh bo'lakli gapning bir tipiga ega umuman bo'lmaydi, u matndan nutq so'zlanib turgan vaziyatdan ham bilinmaydi (shaxssiz gap): *Soy yoqalab chopdim. Shunda-da bakovul ovozidan darak bo'ladi.*

Demak, eganing qo'lanilishi yoki qo'llanilmasligi gapning logik mundariyasi grammatik shakli va nutq uslubi bilan bevosita bog'liqdir.

Ega – ma'no vazifasiga ko'ra kesimdan anglashilgan ish-harakat, belgining bajaruvchisi, egasi bo'lib kelishi bilan xarakterlanadi.

Ega tuzilishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

a) sodda ega;

b) murakkab ega.

Sodda ega ayrim bir so'zdan iborat bo'ladi. Uning uch xil ko'rinishi bor: a) tub so'z holdagi sodda ega: *U l o q goh sho'rchiliklarda, goh bizda, goh vaxshivorliklarda yurdi. M e n arazlab o'tira berdim.* b) qo'shma so'z holdagi sodda ega: *Q i z b e l i toziday chopdi. Q i z i l k o' k shundaygina yonimizga keldi. Onamiz bilan ayolimiz xo'rak olib keldi.*

Murakkab egalar ikki yoki undan ortiq so'zlarning grammatik-semantik bog'lanishidan hosil bo'ladi. Murakkab eganing ham uch xil ko'rinishi bor. a) Ajralmas holdagi erkin birikmali ega: *B o r e ' t i b o r l a r i uloqda bo'ldi. Dumli hayvonni odamga el qilish barchaning-da qo'lidan kelmaydi!* b) bir butun holda qo'llanuvchi bog'lanmalar bilan: *Yo'lda G A I l a r ushlab hujjat ko'rsin, Jo'ra bobo, dagan nomni o'qisin...* v) frazeologizm holatidagi murakkab ega: *Og'iz ochish boshlandi. Qulog'i og'irlar uloqni kim oldi, deya qayta so'rasin.* Xullas, ega haqidagi axborot kesim orqali oldindan bilinib turadi. Ega ham til tizimidagi birlik sifatida shakl va mazmun qarama-qarshiligi va birligidan tashkil topgan bir butunlikdir. Ikki tarkibli gapda ega va kesim moslashadi. Bu holat shaxs –son affikslari, fe'lning birlik nisbati orqali ifodalanadi.

Ega va kesim ham mantiq jihatidan, ham grammatik jihatidan moslashadi: *Endigi uloqni men olib chiqdim. Darbandlik chavandoz uloqni taqimiga bosib oldi.* Ega va kesim faqat mantiq jihatidan moslashadi: *Barcha to'plandi.*

2.2. KESIMNING QO`LLANISHI VA IFODALANISHI

O'zbek tilshunoslari kesimni morfologik kategoriya–kesimlik katigoriyasini uning sintaktik vazifasi sifatida belgilashda va kesimning ham, gapning xam kichik qurilish qolipi kesimlik ko'rsatkichlari (PM) bilan shakllangan atov birligi (W) , ya'ni (WPm) sifatida ajratishdi. Kesim morfologik shakl orqali bog'lansa, gap kesim orqali-nutqda bir kesimga tobelangan so'zlar tizmasi sifatida ta'riflandi. Gapning butun tasnifi tasdiq- inkorlik, shaxs, zamon, kommunikativ maqsad va hokazolar kesimga qarab belgilanadi. Kesim va gapga bunday yondashish ularni sof lingvistik tushunchalar sifatida o'rganish va ularni mantiq atigoriyalari xususiyatlaridan ozod qilishga imkon beradi. Kesim gapni tashkil etuvchi markaz, mutlaq hokim bo'lak mavqeiga ko'tarildi.

Kesim gap qurilishida uyushtiruvchilik rolini o'ynasa, qolgan bo'laklar kesimning kengaytiruvlari vazifalarini bajaradi. Gapning yangi axborot tashuvchi qismi ham kesim sanaladi. Xullas, kesim ham uyushtiruvchi markaz, ham axborot markazidir.

Kesim shakliy jihatdan morfologik va sintaktik shakllardan tashkil topgan bo'lib, uning morfologik shakli invariant, sintaktik shakli variant sifatida namoyon bo'ladi.(Invariant - tilning o'zgarmas holati – morfema, leksema, variant-til birligining o'zgaruvchi turli tuman ko'rinishi).

Kesim quyidagi morfologik shakllar asosida namoyon bo'ladi:

Fe'l bilan: *Ketim bilan shilq etib t u sh d i m... Onamiz yig'lab-yig'lab h o l s o`r a d i. Shu bois, Tarlon mendan o`zgani o`ziga yo`latmaydi. Bir mahal temir darvoza sharaqlab ochilib, sharaqlab yo p i l d i. Tarlonni kamardan o l i b c h i q d i m.*

Ot bilan: *Ko`rinayotgan paxta emas, oppoq b u l u t l a r b o`l d i. Birodarlar, sochim bo`lmasa-da, tarog`im t i l l o d a n. Menga qaralsin, shapka i n s o n e m a s! Shapka-l a t t a! Shapka-q o g` o z! Bizning ishimiz jiddiy, xalq ahamiyatiga molik i sh! Ko`pkari yovvoyilar o`y i n i*

Sifat bilan: *Birodarlar, o`zing yaxshi-olam ya x sh i, o`zing yomon-olam yo m o n. Choynakdagi choyi o q e m i sh. Botinkalari tovonni ot tuyog`iday - ot tuyog`iday q a l i n b o`l d i. Oboqli taraflarda otlar b u s-b u t u n e m i sh, t u s -t u g a l e m i sh.*

Ravish bilan: *Tashqari so`rilarda odam m o`l b o`l d i. Moskvada nima ko`p, mashina k o`p b o`l d i. Obshir qishlog`i kunbotarida oq tuproqli odirlar, tepalar m o`l.*

Olmosh bilan: *Buyra ot ana shu!*

Son bilan: *Birovlar sanasa yu z l a r b o`l d i.*

Kesim vaziyatidagi bo`lak sintaktik va morfologik shakl qarama – qarshiligi va birligidan iborat. Kesim sintaktik shakli uchun ko`proq xoslangan morfologik shakl fe'lidir. qolgan morfologik shakllar kesim vaziyatida kelishi uchun maxsus kesimlik shakllarini – bog`lamlarini olishi kerak bo`ladi.

Kesim morfologik shakllariga ko`ra ikki guruhga bo`linadi:

1. Fe'l kesimlar – kesim vaziyat uchun xoslangan morfologik shakllar.
2. Ot kesimlar – fe'ldan boshqa shakllardan bo`lgan kesim vaziyatida keladigan morfologik shakllar.

Fe'l va uning funktsional shakllari (sifatdosh, ravishdosh va harakat nomi) kesim sintaktik shakli vaziyatida kelishi fe'l kesim sanaladi.

Fe'l kesim vaziyatidagi sintaktik shaklning morfologik shakllar tizimi fe' kesimlar shakliy paradigmasi, shakliy, paradigma a'zolarining o`zaro munosabati esa paradigmatic munosabat hisoblanadi. Paradigma a'zolarini umumlashtiruvchi shakli sintaktik shaklidir.

Sof fe'l morfologik shakli asosidagi sintaktik shakl quyidagi paradigma a'zolarini birlashtiradi:

1. Sintaktik shaklning ijro maylidagi morfologik shakli mustaqil sodda gapning kesimi vaziyatida keladi. Kesim vaziyatidagi bu sintaktik shakl shaxs–son, zamon morfologik shakllariga ham ega bo`ladi: *Ovozini qo`yib g a p i r o l m a d i. O`zi uloq ch o p m a d i. Mol-qo`ylarini s o t -d i. Ertalab Tarlonni s u v l a t m a d i m.*

2. Sintaktik shaklning buyruq – istak maylidagi morfologik shakli ham mustaqil sodda gapning kesimi vaziyatida keladi: *Chilvir? Qanaqa chilvir? Okun, mehmoni azizsiz, bo`hton qilmang! To`riq, kel, haqingni ol! –dedi -Bersang berding, bermasang, shu Tarlonga uyimdan bir qo`y olib kelib beraman! Ayt, bo`laringni ayt.*

3. Sintaktik shaklning shart maylidagi morfologik shakli ergash gaplarning kesimi, ba'zan sodda gapning vaziyatida keladi: *Ana shu kunlari inson ko`p g`ashiga tegsa, inson elkasidan g`archillatib tishlab olishdan-da, qovug`iga tarsillatib tepishdan-da qaytmaydim.*

Sifatdosh morfologik shakli asosida sintaktik shakl ham, ravishdosh morfologik shakli asosida sintaktik shakl ham harakat nomi morfologik shakli asosidagi sintaktik shakli ham yana o`z ichida alohida–alohida paradigmalarni hosil qiladi: *Yo`q, kayfiyati yo`q kunlari otga indamaslik lozim bo`ladi, ko`ngliga qarash lozim bo`ladi. Xurjundan ko`pkari etigimni olib kiydim. Chavandozlar tevarakni aylanib chopdi.*

Fe'l kesimning mazmunini fe'l predikatlar tashkil etadi. Fe'l predikat nisbiy butunlik – sintaktik ma'no sifatida quyidagi morfologik ma'nodan tashkil topadi:

1) sub'ekt harakati: *Bir muallimnikiga tushdim. Tarlon em emadi Tarlon sag`risiga qamchi urdi. Men Tarlonni qizitdim. Bunday zo`rlar zo`ri, otlar oti uloqqa talpindi. Men enkaydim, uloqni bir qo`llab ushladim.*

2) sub'ekt xolati: *Tarlon pishqirib-pishqirib qimtindi. Bir chavandoz Tarlon o`ktamligidan g`ashlandi. Shunda, bir ot uloqni tuyoqlari bilan bosib qoldi. Tarlon xiyol o`zgardi.*

3) payt: *Adashmasam, yaqinda og`ir bir dardni boshidan kechirgan deyman-ov? Tarlon kamarda o`n kun och yotdi, ana shu xayolimdan o`tdi. Ayni kunlarda kal katta choyxonada yonboshlab yotar emish.*

4) shart: *Katta-katta ko`pkarilarda uloq to`dadan sag`al chiqsa bo`ldi, halol bo`ladi! Boshqalarning oti bo`lsa, hamisha el og`zida bo`ldi.*

5) istak: *Rulni hamsoyasining to`ng`ich o`g`liga berdi. –Aytgan erimga mindirib borib kelsang bo`ldi, -dedi.*

6) maqsad: *Jo`ra bobo joniga to`ydi. Bir tushda qoradori edi. Ustidan sovuq suv ichdi. Yorilib o`lmoqchi bo`ld! Asl maqsadi-mashinasi ko`chani changitib yursin, odamlar bu Jo`ra boboning mashinasi, desin.*

Bu sanab o`tilgan paradigma a'zolari sintaktik ma'no (invariant) bo`lgan predikatning morfologik ma'nolari – variantlaridir.

Sintaktik shakl birligi bo`lgan fe'l kesim sintaktik ma'no birligi predikat bilan o`zaro munosabatdadir. Ular bir butunlikning o`zaro qarama qarshi ikki tomoni sanaladi. Kesim bilan predikat o`zaro bog`liq bo`lsa ham, lekin ular bir hodisaning ikki tomoni bo`lgani sababli ma'lum o`ziga xos xususiyatlarga ega. Mazmuniy predikat doimo sintaktik kesim vaziyatida kelavermaydi: *-Tarlonniki halol, Tarlonniki halol!* Bu gapdagi har ikki predikat ega vaziyatida kelgan.

Fe'ldan boshqa morfologik shakllardan bo`lgan kesim vaziyatidagi sintaktik shakl ot kesim hisoblanadi. Ot kesim ham shakl va ma'no birligidan tashkil topgan butunlik sanaladi.

Ot kesim vaziyatidagi sintaktik shakl va butun sifatida quyidagi morfologik shakllar orqali namoyon bo`ladi:

Ot bilan: *Yo`q, birodarlar, adolat e r d a! Oyoqlarimiz o s t i d a! Ostidagi oti q i z b e l!*

Sifat bilan: *Otlar siyrak bo`ldi. Mehmon otlar taxchil bo`ldi.*

Son bilan: *Haydar cho`qqi bobongiz ham saksonda*

Olmosh bilan: *Adolatni kim bunday xor qilayapti? Biz-o`z i m i z!*

Ravish bilan: *Burnoch otning xili k o`p b o`l a d i.*

Harakat nomi bilan: *Yo`q, kayfiyati yo`q kunlari otga indamaslik lozim bo`ladi, ko`ngliga qarash lozim bo`ladi.*

Undov bilan: *Orqada qolganlarning hayotiga v o y!*

Taqlidiy so`z bilan: *Tarlon vazmin-vazmin qadam tashladi. Tuyoq tovushlari bir maqomda tikilladi: tik-tik-tik... Tarlon bo`ynini ko`zoynakli ilon misol gajak-gajak qildi.*

Modal so`z bilan: *Yo, tavba, yo tavba! O`sha-o`sha uloq. Lekin bo`yni y o`q! Butlari y o`q! Bunday uloqni erdan uzib olishning bir yo`li b or.*

Sanab o'tilgan morfologik shakllar ot kesim vaziyatidagi sintaktik shakllarning mundarijasini tashkil etadi.

Ot kesimning mazmuniy morfologik ma'no va sintaktik ma'nolarning qarama – qarshiligi va birligidan iborat. Sintaktik ma'nolar morfologik ma'nolar orqaali ro'yobga chiqadi. Natijada morfologik ma'nolar sintaktik ma'no paradigmasini vujudga keltiradi: predmet (Bu – maktub), belgi (Kitob – o'qimishli), ko'rsatish (Keltirganimiz – shu), o'lchov (O'tlar–beldan) va boshqalar.

Ot kesimlarda sintaktik ma'no hisoblangan predikat sintaktik shakl kesim vaziyati bilan munosabatda bo'ladi. Ot predikat va kesim bir hodisani o'zaro qarama–qarshi ikki tomonidir. Otlarning predikat ma'nosi uning sintaktik vaziyati bilan chegaralangan bo'ladi.

Kesimning shakli va mazmuni o'rtasidagi munosabat deganda esim va predikat o'rtasidagi munosabat nazarda tutiladi.

Kesim vaziyatida keluvchi sintaktik ma'no predikatdir. Predikat ham mazmuniy, ham mantiqiy tushunchadir. Mantiqiy tushuncha sifatida predikat–fikrning sub'ekti belgisini bildiruvchi qismdir. Mazmuniy tushuncha sifatida har qanday sintaktik tuzilmaning markazidir.

Predikat va kesim tushunchalari o'zaro munosabatda bo'lib, bu xodisaning o'zaro qarama – qarshi ikki tomoni – mazmun va shakl tomonidir. Har qanday kesim predikat asosida shakllanadi. Predikat faqat predikativlik shakllari orqali ifodalanganligi, kesimning ma'no tomoni bo'lib keladi. Masalan: *Tarlon turgan joyida er depsindi*. Bu gapda Tarlon va depsindi predikatlari mavjud. Ushbu predikatlardan “depsindi” shaxs, son, zamon, tasdiq, nisbat kabi predikativlik shaklini olib, kesim vaziyatida; “Tarlon” so'z bosh kelishik shaklini olib, ega vaziyatida kelyapti.

Kesimni ma'nosiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Harakat–xolat bildiruvchi kesimdir: *Oxiri bir Cho'bir ot enlik ko'kragi bilan to'dani yorib-yorib, uloqni olib chiqdi. To'y havosi Tarlonni ko'pkariga chorladi.*

2. Belgi bildiruvchi kesimlar: *Qoralik-ko'pkarining eng q i y i- n i d i r. Jo'ra boboning dardi yo l g' i z bo'ldi, dardi e z g u b o' l d i: to'rig'i uloqni ayirsin.*

3.Miqdor bildiruvchi kesimlar: *Hamsoyasining bolasi s a k k i z- t a Senga o`xshaganlarning soni mingta!*

4.Shaxs bildiruvchi kesimlar:*Bu kimning o`g`li?Murodning o`g`li. Bu kimning q i z i? Murodning q i z i.*

5.Predmet bildiruvchi kesimlar: *-Uloq Jo`ra boboning otida! Eshitmadim demanglar, Jo`ra boboning o t i d a! Bu yol emas, i p a k, i p a k! Bu yol emas, d o`m b i r a t o r i, d o`m b i- r a t o r i!*

6.O`rin–joy bildiruvchi kesimlar:

-Qaerlardan so`raymiz?

- Toshkent!!!

Kesim tuzilishi jihatidan sodda va murakkab bo`ladi.

Sodda kesim. Sintaktik shaklidagi so`z bilan ifodalanib eganing belgisini anglatadigan kesim sodda kesim deb ataladi. Sodda kesim ifodalanishiga ko`ra ikki turi bo`ladi: sodda ot kesim va sodda fe'l kesim Sodda ot kesim predmetning belgisini hozirgi zamon nuqtai nazardan ko`rsatish uchun xizmat qiladi. Sodda ot kesim quyidagi so`z turkumlari bilan ifodalanadi:

Ot bilan: *Mana fakt-ust-boshim l o y! Hamkasblaring jonli g u v o h.*

Sifat bilan: *Birodarlar, o`zing yaxshi-olam ya x sh i, o`zing yomon-olam yo m o n!*

Olmosh bilan: *O`zi, qanday qilib go`sht qiladi? Mana bundaymi? Ana shunday-da? Buyra ot ana shu!*

Ravish bilan: *Obshir qishlog`i kunbotarida oq tulporli adirlar, tepalar m o` l. Ana shu tepalar nishabida kamarlar m o` l.*

Harakat nomi bilan: *Uloqni qoralikka bir marta o l i b t a sh -l a sh, to`dadan uch marta uloq aylantirishdan ziyod!*

Bor, yo`q so`zlari kesim vazifasida keladi: *Birodarlar, otning shamoli b o r! Birodarlar, uloqning havosi b o r!*

Sodda fe'l kesim leksik ma'noli fe'l bilan ifodalanadi: *Qoziqni molxona yoniga q o q d i m.*

-Yo`q! Qiyomat-da s o t m a y m a n! B o`l d i m i?

Tarkibli kesim. Analitik shaklidagi qurilmalar bilan ifodalangan kesimlar sostavli kesim deyiladi. Buning tarkibi etakchi va ko`makchi elementlardan iborat bo`ladi: *Bozorlab keluvchilar ot-ulovlarini ana shu erga bog`lab qo`ya di. Bakovul uloqni qoralikdan xolisga olib borib tashladi. Boyanagi chil ot uloqni tag`in olib chi-qaman deddi.*

Tarkibli kesimlar, ifodalanishiga ko`ra, sostavli fe'l kesim va sostavli ot kesimga bo`linadi.

Tarkibli fe'l kesimlar ikki yoki undan ortiq negizdan tashkil togan fe'llar bilan ifodalanadi. Bunda fe'llarning biri o`zining leksik manosi saqlab etakchi fe'l hisoblanadi. qolganlari etakchi fe'ldan anglashilgan harakatni bajarilishi bilan bog`liq bo`lgan turli qo`shimcha ma'nolarni ifoda etib, ko`makchi fe'l hisoblanadi.

Tarkibli fe'l kesimlarning etakchi qismi ko`pincha ravishdosh shaklida bo`ladi: *Uloqni bir Chil ot olib chi qdi Bakovullar-u chavandozlar Jo`ra bobo dilidagini darrov ilg`ab oldi.*

Sostavli fe'l kesim ba'zan juft fe'llar bilan ifodalanishi ham mumkin:

Tarkibli ot kesimlar keng ma'nodagi ot bog`lama yoki to`liqsiz fe'l tipidagi qurilmalar bilan ifodalanadi. Bunda asosiy ma'no otdan anglashilib kesimning ega bilan moslashuvini ta'minlaydi: *Elkasidagi yulduzlari-da katta-katta bo`ldi. Do`xtir degani berahm ekan. –El qatori Ziyodulla kal deya bering. O`z otim o`zim bilan... Xudoga shukur-e, endi pochtachi-da kal deydigan bo`ldi!*

Tarkibli ot kesim harakat nomi + kerak (zarur , lozim, darkor) tipidagi qurilmalar bilan ifodalanadi: *-Chaqaloqli uyga bemahalda kelib bo`lmaydi. Mabodo birov bilmasdan kelib qolsa, undan ulgu olib qolish lozim.*

Tarkibli ot kesim ba'zan chiqish kelishigi shaklidagi so`z Q iborat tipidagi qurilmalar bilan ifodalanadi: Vazifamiz yig`im terini muvafaqqiyatli yakunlashdan iborat ("Xalq so`zi").

Tarkibli ot kesim bor, yo`q so`zlari va to`liqsiz fe'l tipidagi qurilmalar bilan ifodalanadi: *Bu dostonlarni to`ylar, olis yaldo kechalari bobolarimiz biri qo`yib biri aytar edi. Qimirlagan jon yo`q emish. Erkak zotining o`zi tugul, izlari-da yo`q emish. Chin qishlog`imizda shunday qiz bor!*

Ikki va undan ortiq soʻzlarning grammatik–semantik munosabatidan tashkil topib, bir butun holda kesim sifatida shakllangan hodisalar murakkab kesim sanaladi.

Murakkab kesim quyidagicha ifodalanadi:

1. Turgʻun birikmalar bilan: Koʻnglim ozdi, koʻz oldim qorongʻi boʻldi.

2. Frazologik birikmalar bilan: *Qopqogʻi enlik ot-da yaxshi boʻladi. Bundayiga-da koʻz i m t u sh m a d i. Birodarlar, shu boʻzga d i l k e t d i! Etlarim jimir-jimir etdi. Koʻzlarim otilib chiqib ketayotganday boʻldi. Bahonatalab boʻlaman. Biron-bir bahona izlayman. Qildan qiyiq axtaraman.*

Izofa harakatidagi koʻchma maʼnoli qaratqichli birikmalar bilan: *Otalar soʻzi aqlning koʻzi (Maqol).*

Kesimdan keyin kelib, kesimni grammatik jihatdan shakllantirish, uning semantikasini taraqqiy ettirish, fikrni tugallash, shaxs–son, zamon, modallik kabi grammatik maʼnolar ifodalash, kesimning ega bilan munosabatini koʻrsatish uchun xizmat qiluvchi yordamchi vositalar bogʻlama sanaladi.

Bogʻlama quyidagicha shakllanadi:

1. Edi, ekan, emish kabi toʻliqsiz feʼllar bilan: *Oʻzi, kallasi bilan yuzining farqi yoʻq ekan... Keyin-keyin bilsam, birov-da bu dunyoga ustun boʻlolmas ekan.– Men sizga aytsam, kelmas edim, Hasan bobo qoʻymadi, borch i bor deb. Ot oʻzimniki emas edi.–Ha-a.*

2. Predikativ – modal soʻzlar bilan (kerak, zarur , shart , lozim, mumkin): *Oʻzib oʻtayotib, ha-ha, oʻzib oʻtayotib, uloqni yulib olib ketish lozim boʻladi.*

3.Koʻmakchi feʼl bilan: *Beqasam choponlik bolani bolani qoʻyib yubordi. Beqasam choponlik enkaydi. Biqinini ushlab enkayib qoldi.*

4.Bor, yoʻq, emas soʻzlari bilan: *Qoʻchqorday-qoʻchqorday oʻgʻillarim bor! Oʻzim ham aytdim-a, bir gap bor deb Bunday uloqni olishning yaxshi yoʻli bor. Ammo Joʻra boboning oti bizning Tarlondayiy olgʻa emas, yoniga burib soldi.*

5.Predikativlik affikslari bilan: *Mayizni shularning toʻyiga bosib yotibman. Bu qish kuchim etmaydi, kelasi qishda katta toʻy berman.*

Bog`lamalar tuzilish jihatidan so`z – bog`lama va affiks bog`lamaga bo`linadi.

Kesim gapning shakllanishida asosiy rol o`ynovchi, biroq grammatik jihatdan egaga tobe bo`lgan bosh bo`lakdir. Kesim eganing umumiy belgisini, ega haqidagi xabarni bildiradi. Shuning uchun kesim predmet, narsa-hodisaning harakati, belgisini bildiruvchi so`zlar bilan ifodalanadi. Ma'lumki, fe'l va sifatlar ana shunday so`zlar hisoblanadi. Biroq sifat ko`proq predmetning statik (qotib qolgan, turgun, predmetning o`zida bo`lgan, undan ajralmagan) belgisini bildirgani sababli aniqlovchi vazifasida, fe'l esa kesim vazifasida qo`llaniladi. Fe'l kesimga mos keladigan so`z turkumidir. Aytish mumkinki, shaxsli fe'llarning har biri potentsial kesimdir. Umuman, nutqimizda fe'l-kesimli gap ko`pchilikni tashkil qiladi. Fe'lning ravishdosh, sifatdosh shakllari ham kesim vazifasida qo`llanib, fe'l-kesim bo`lib keladi. **Otasi og`ziga tupurgan bo`lsa ajab emas! -U chavandoz emas, kanadalik yozuvchi. O`zining «Yovvoyi yo`rg`a» degan kitobida shunday yozgan.–Unda, ot moy tashlaydi. Keyin ko`pkariga yaramay qoladi. Boqilgan otni bilib-bilmay chopib qo`ysangiz, ot ichida moy to`lib qoladi. Bunday otni-da bir yilgacha ko`pkarida chopib bo`lmaydi.** kabilar.

Kesim gapning shakllanishi, uyushishida, fikrning yuzaga kelishida egaga nisbatan asosiy rol o`ynaydi. Negaki, gapning grammatik asosi bo`lgan predikativlik ko`proq kesim bilan ifodalanadi. Shuning uchun predikativlikni kesimlik ham deyishadi. Predikativlikning tarkibiy qismlari - sintaktik shaxs, sintaktik zamon, modallikning, tugallangan intonatsiyaning ifodalanishi ham asosan kesimga bog`liqdir. Shuning uchun ko`p hollarda ega tushirib qoldirilsa ham, fikr ifodalanaveradi. Biroq kesimsiz fikrning ifodalanishi, gapning yuzaga kelishi deyarli mumkin emas. Hatto shaklan ega sifatida talqin qilinadigan nominativ - atov gaplar ham mohiyatan kesim mazmuniga egadir. Zero, bular bosh kelishik formasidagi predmetning nomigina emas, uning mavjudligini tasdiqlovchi tugallangan intonatsiyaga ega predikatdir, kesimdir.

2.3. EGA VA KESIMNI BOSHLANG'ICH SINFDA O'QITISH USLUBIYATI

Gap ustida ishlash o'quvchilarning nutqini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. Gap ustida ishlashning asosiy vazifasi o'quvchilarni sintaktik jihatdan to'g'ri va aniq gap tuzib, tugallangan fikr bildirishga o'rgatish hisoblanadi. Gap (grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, tugallangan mazmun va tugallangan intonastiyaga ega bo'lgan) nutq birligi bo'lib, aloqa maqsadiga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun muhimi, birinchidan, gap nutq birligi ekanligidir. Shunday ekan, nutqqa oid mashqlarga qo'yilgan talablar gap ustida ishlash mashqlariga ham taalluqlidir; ikkinchidan, gap - grammatik tomondan to'g'ri tuzilgan birlik, shunday ekan, gap ustida ishlash -grammatika bilan chambarchas bog'liq bo'lib, gap qurilishi, gapda so'zlarning bog'lanishi va gapning turlari ustida ishlash juda muhimdir; uchinchidan, gap mazmun birligi bo'lib, tugallanganlik mazmunini bildiradi. Binobarin, gapning mazmuniy asosi, mazmun ottenkalari ustida ishlash va ularning gap tuzilishiga bog'liqligi ustida ishlash zarur; to'rtinchidan, gapning intonastiyasi katta ahamiyatga ega, shuning uchun intonastiya ustida ishlash, intonastiyaning mazmun bilan bog'liqligini tushuntirish juda zarur.

Boshlang'ich sinflar dasturining «Grammatika, imlo va nutq o'stirish» bo'limida sintaksisdan beriladigan bilimlar aniq ko'rsatilgan. Bola boshlang'ich sinflarda beriladigan sintaktik materiallar hajmida faqat ona tili darslaridagina emas, balki boshqa darslarda va maktabdagi barcha mashg'ulotlar jarayonida gap tuzish, uni tahlil qilish va qayta tuzishga o'rgatib boriladi.

Gap ustida ishlashga oid mashqlar juda xilma-xil bo'lib, analiz va sintezning ustunligiga hamda o'quvchilarning mustaqillik darajasiga ko'ra tasnif qilinadi.

Analiz yoki sintezning ustunligiga nisbatan gap ustida ishlash mashqlari ikkiga bo'linadi:

1) analitik mashqlar, ya'ni tuzilgan tayyor matndan olingan gapni tahlil qilish;

2) sintetik mashqlar, ya'ni mustaqil gap tuzishga qaratilgan mashqlar.

Analitik mashqlar sintetik mashqlarga zamin bo'lib xizmat qiladi, ular parallel holda yoki sintetik mashqdan so'ng analitik mashq o'tkaziladi.

O'quvchilarning mustaqilligi va bilish faoliyatining faolligi darajasiga ko'ra gap ustida ishlash mashqlari uchga bo'linadi: 1) namuna asosidagi mashqlar; 2) konstruktiv mashqlar; 3) ijodiy mashqlar.

Namuna asosidagi mashq aniq, to'g'ri tuzilgan sintaktik qurilmalarni amaliy o'zlashtirishni, ularning ichki bog'lanishini, mazmunini tushunishni ko'zda tutadi. Bunday mashqlar ichida analitik mashqlarga, shuningdek, gapni kuzatish va eshitish, uni o'qishga muhim o'rin beriladi. Namuna asosidagi mashqlarga quyidagilar kiradi:

1. Gap ustida ishlashning eng oddiy, boshlang'ich, shu bilan birga, eng zaruriy shakli namunani o'qish (yozish), intonastiyasi, ifodaliligi ustida ishlash, gapning asosini va mazmunini tushuntirish, ba'zan esa gapni yodda saqlash, yodlash hisoblanadi.

Gapni o'qish va kuzatish nutq o'stirishga katta yordam beradi.

Gap intonastiyasi ustida ishlash gap mazmunini va bog'lanishini tushunishga, namunaga qarab, uni o'zlashtirish va yodda saqlashga, gap qurilishini yaxshi tushunishga yordam beradi.

Gap intonastiyasi ustida ishlash jarayonida nutqdan gapni intonastiyaga qarab ajratishga, intonastion tugallanganlikni ifodalashga, darak, so'roq va undov gaplarning intonastiyasiga, uyushnq bo'lakli gaplar va bog'lovchisiz qo'shma gaplardagi sanash intonastiyasiga, bog'langan qo'shma gap intonastiyasiga e'tibor berish kerak.

2. Savol asosida gap tuzish. Bunda berilgan savol javob (gap tuzish) uchun asos bo'ladi va «namuna» vazifasini bajaradn. Savolda uning asosiy mazmunigina emas, balki barcha so'zlari va sintaktik qurilishining chizmasi

ham beriladi. Masalan: Bolalar dalada nima terdilar? (Bolalar dalada paxta terdilar.)

Savollar asta-sekin murakkablashtirib boriladi: bolalar oldin so`roq so`z o`rniga bir so`z qo`shib gap tuzgan bo`lsalar, keyinroq o`z so`zlarini ko`proq qo`shishga majbur bo`ladilar: Bolalar dalada nima qildilar? (Bolalar dalada paxta terdilar. Bolalar dalada paxta terdilar va uni xirmonga to`kdilar.) Yoki «Bolalar qaerda bo`ldilar? Ular nima qildilar?» (Bolalar dalada bo`ldilar. Ular paxta terdilar va xirmonga topshirdilar). Sen tipratikan haqida nimalarni bilasan? Nega qushlar uyasini buzii mumkin emas?

Konstruktiv mashqlarga gap tuzish va uni qayta tuzishga qaratilgan mashqlar kiradi; bunday mashqlar grammatik tushuncha va qoidaga asoslanadi. Konstruktiv mashqlarning turlari quyidagilar:

1. Aralash berilgan so`zlardan gap tuzish yoki tartibsiz berilgan gaplardan matn tuzish. Bunda so`zlar grammatik materialning o`rganilishiga qarab uch variantda berilishi mumkin: a) so`zlar tayyor ishlatiladigan shaklda beriladi: paxta, dalada, bolalar, terdilar (Bolalar dalada paxta terdilar); b) o`rganilgan grammatik materialni hisobga olib, ayrim so`zlar bosh shaklda, boshqalari tayyor shaklda beriladi. Masalan, «Otlarda birlik va ko`plik» mavzusi o`tilgach, paxta, dalada, bola, terdilar shaklida berilishi mumkin; v) barcha so`zlar bosh shaklda beriladi: paxta, dala, bola, termoq.

2. Nuqtalar qo`yilmagan bosh harf yozilmagan matndan gaplarning chegarasini ajratish; bu mashq bolalarni o`z nutqlarida gaplarning chegarasini ajratishga, gapni to`g`ri o`qish va yozishga o`rgatadi.

3. Berilgan sodda gapni so`roqlar yordamida bosqichli yoyish mashqi. Masalan: qushlar uchib keldi. qaerdan uchib keldi? qushlar sovuq mamlakatlardan uchib keldi. qaerga uchib keldi? qushlar sovuq mamlakatlardan o`z uyalariga uchib keldi.

4. Berilgan sintaktik chizma asosida gap tuzish

Ega _____ kesim

II d. b.

II d. b.




Ega _____ kesim

II d. b.

II d. b.

II d. b.



Chaqqon bolalar olma Ishchan bolalar oppoq paxtalarni terdilar.
zavqlanib terdilar.

5. Berilgan gapga o`xshash, masalan, uyushiq egali yoki kesimli soda yoyiq gap tuzish. Bunda o`quvchilarga «quyosh yoritadi va isitadi» kabi gap beriladi; o`quvchi «Ravshan o`qidi va ishladi» kabi gap tuzadi.

6. Ikki-uch sodda gapdan bitta uyushiq bo`lakli sodda gap tuzish. Masalan, «Bahorda qaldirg`ochlar issiq mamlakatlarga uchib ketadi», «Bahorda laylaklar ham uchib ketadi» gaplaridan uyushiq bo`lakli «Bahorda qaldirg`ochlar va laylaklar issiq mamlakatlarga uchib ketadi» gapi tuziladi.

XULOSA

Yuqorida bayon qilinganlardan ma'lum bo'ladiki, gap bo'laklari lisoniy belgi sifatida shakl va ma'no birligidan iborat. Gap bo'lagining o'zi ikkilangan xususiyatga ega bo'lish birga, uning tarkibidagi shakl va ma'no xususiyatlari ham ikkilangandir. Gap bo'lagi shakli morfologik va sintaktik shakl birligidan tashkil topgani kabi, uning ma'nosi ham morfologik va sintaktik ma'no birligidan tashkil topadi.

Ishimizda ko'rib chiqqanimiz, ega bilan kesimning qo'llanishini ham yuqoridagi qoidaga asoslanib, o'rganib chiqdik.

Boshlang'ich sinfda bosh bo'laklarni o'rgatish yuzasidan olib borgan tadqiqotlariimiz asosida quyidagicha umumiy xulosa chiqarish mumkin:

-tilshunoslikning murakkab sathi hisoblanadigan sintaksis jihatdan tahlil qilinganda boshlang'ich sinflarda ko'proq sodda gaplar orqali fikrlar bayon qilish kerakligining guvohi bo'lamiz;

- ko'pincha gaplarda eganing belgisiz qo'llanishi holatini uchratishimiz mumkin.

Ushbu MBIni yozish jarayonida tadqiqotning oldiga qo'ygan bir qator maqsad va vazifalarga erishildi hamda quyidagi natijalar qo'lga kiritildi:

- gap bo'laklarining faqat morfologik, shakliy tomoni emas, balki mazmuniy tomoni ham yoritib berildi;

-eganing belgigi va belgisiz qo'llanishi, uning sabablarini ochib berildi;

-eganing morfologik ifodalanishini ko'rsatib berildi;

-eganing tuzilishi jihatdan turlari aniqlandi;

-kesimning qo'llanishini, uning mazmuniy va shakliy tomoni o'rganib chiqildi;

-kesimning morfologik jihatdan ifodalanishini o'rganildi;

-kesim bilan eganing moslashuvi ko'rib chiqildi;

-ega bilan kesimni boshlang'ich sinflarda o'qitishning samarali usullarini ishlab chiqishga baholi qudrat harakat qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. “O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li” Toshkent. “O`zbekiston” 1992 yil.
2. Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q”. T.: “Sharq”, 1998 y.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: “Sharq” 1997 y.
4. Abdurahmonov G., Sulaymonov A., Holiyorov X., Omonturdiev J., Hozirgi o`zbek adabiy tili(sintaksis). T., O`qituvchi, 1979.
5. Abdurahmonov G`. O`zbek tili grammatikasi. T.: O`qituvchi, 1996.
6. Abduraxmonov va boshqalar G`. O`zbek tili grammatikasi. T.: 1999. 3-123 betlar.
7. Asqarova M. “O`zbek tili grammatikasining praktikumi”
8. Asqarova M. Hozirgi o`zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). T.: 2000 y.
9. Ikromova R., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G`ulomova X. Hozirgi o`zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari. (Sintaksis). 2001 y.
10. Mahmudov N., Nurmonov A. O`zbek tilining nazariy grammatikasi. Toshkent, «O`qituvchi», 1995.
11. Mutallibov S., Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. “Fan”. Toshkent., 1959 y.
12. Mirzaev M., Usmonov S., Rasulov I. “O`zbek tili” “O`qituvchi” nashriyoti. Toshkent. 1966y.
13. Ne'matov X, Sayfullaeva R., Qurbonova M. O`zbek tili struktural sintaksisi asoslari. Toshkent: Universitet, 1999. 55-bet.
14. Nurmonov A., R. Rasulov. O`zbek tili jadvallarda. T., 1983.
15. Nurmonov A. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar. Toshkent, 1988.
16. Nurmonov A., Rasulov R. O`zbek tili jadvallarda. T.: O`qituvchi, 1993.

17. Rahmatullaev. Sh. Hozirgi adabiy o`zbek tili (darslik). T.: Universitet, 2006.
20. Sayfullaeva R va boshqalar. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Sintaksis.III.(o`quv qo`llanmasi). T., 2006.
- 21.Fayzullaev B va boshqalar. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Sintaksis. T.: 2006 yil.
24. O`rinboev B., Hozirgi o`zbek adabiy tili. Sintaksis.T.: -1990- yil.
25. O`rinboev B., Hozirgi o`zbek adabiy tili. Sintaksis. Samarqand.: -2002- yil., 57-60 betlar
26. O`rinboev B., Hozirgi o`zbek adabiy tili. Sintaksis. Samarqand-2006- yil., 57-60 betlar
27. G`ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Sintaksis, darslik. T. «O`qituvchi», 1987 y.
28. Qurbonova M. Sodda gap. T.: O`zMU, 2001.
29. Hojiev A. Lingvistika terminlarining izohli lug`ati. Toshkent, 1985 y.

Qarshiboeva Shoiraning «O`zbek tili» mutaxassisligi bo`yicha magistr darajasini olish uchun «Ot kishnagan oqshom» asarida bosh bo`laklarning qo`llanishi va inversiya» mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga

TAQRIZ-TAVSIYANOMA

Bizga ma'lumki, mustaqillik madaniyatimizning hali ochilmagan sahifalarining ochilishiga, ularni o`rganishga katta imkoniyatlar yaratdi. Ana shu imkoniyatdan foydalangan holda adabiyotimizning zabardast vakillarining qoldirgan merosini ham o`rganishga, o`zbek o`quvchilariga etkazish imkoniyati tug`ildi. Ana shunday ijodkorlardan biri Tog`ay Murod hisoblanadi.

Magisrtant tanlagan mavzusi bugungi kun nuqtayi nazaridan o`zining dolzarbligi, hali o`rganilmaganligi bilan ahamiyatlidir. Tog`ay Murodning «Ot kishnagan oqshom» asari adabiyotshunoslar tomonidan o`rganilgan bo`lsa-da, hali tilshunoslikning sintaktik tomonidan tadqiq etilmagan. Shunga asoslanib ushbu ishni asar tilini sintaktik jihatdan o`rganib chiqayotgan ilk ish deb hisoblasak bo`ladi.

Dissertatsiya kirish, 2 bob va xulosa qismlaridan iborat. Ishning kirish qismida Tadqiqotning umumiy tavsifi. O`zbek tili sintaksisida gap bo`laklarining shakliy va mazmuniy tuzilishi haqida ma'lumot berilgan. Ishning asosiy mazmunini ikkinchi bobda yoritgan. Ikkinchi bob 3 ta paragrafdan iborat bo`lib, bu paragraflarda asardagi so`zlar sintaktik xususiyatiga ko`ra tasniflanib, o`rganib chiqilgan. U o`z ichiga: Asarda eganing belgili va belgisiz qo`llanishi; Asarda kesimning qo`llanishi; Asarda ega va kesimning qo`llanishida inversiya hodisasi kabi paragraflarni oladi.

Magistrant asar tilidagi so`zlarni sintaktik tahlil qilish jarayonida diqqatga molik xulosalar chiqarganligi e'tiborga sazovordir. Chunonchi, asar qipchoq shevasi vakillarining tilidan hikoya qilinganlii bois, gaplarning grammatik

qurilishining o'ziga xosligi ochib berilgan; turkiy xalqlarning tiliga xos xususiyatlardan yana biri gaplarning kesimsiz shakllanmasligini o'z ishida o'rganib chiqqan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining fundamental kutubxonasida xuddi shu mavzuga yaqin nomzodlik dissertatsiyalari bilan tanishib, ishni yozishda ijodiy foydalanganligi ishga ijobiy ta'sir qilgan.

Bularning hammasi magistrlik dissertatsiyasining yakunlangan ish ekanligidan dalolat beradi. Ishning boblari va qo'yilgan masalalar bir-biri bilan o'zaro bog'langan, tanlangan mavzu mohiyatini to'liq qamrab oladi, ishdagi ayrim kuzatishlar va xulosalar e'tiborga molik

Xullas, ish magistrlik dissertatsiyasining oliy ta'lim nizomi talablariga to'liq javob beradi deb hisoblayman va DAH huzuridagi himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

f.f.n.dots. A.Musayev

+аршибоева Шоиранинг «Ўзбек тили» мутахассислиги бййича
магистр даражасини олиш учун «То\ай Муроднинг «От кишнаган
о\шом» асарида бош булакларнинг «ылланиши ва инверсия»
мавзусидаги магистрлик диссертациясига

Т А + Р И З

Блкамиз муста\илликка эришгандан кейин миллий тарихимиз
ва маданиятимизни янада чу\урро\ ырганиш, хал\ руциятини,
унинг менталитетини намойиш этувчи маънавий «адриятларни
кенг оммалаштириш, бадий меросининг очилмаган янги
«ирраларини ырганишга киришилди. То\ай Мурод асарларининг
руциятини белгиловчи «ирраларини ёритиб бериш, унинг тил
хусусиятларини, яна ҳам ани\ро\ айтадиган бўлсак уни синтактик
жиҳатдан таҳлил «илиш, бадий ызига ҳослиги ҳамда ёзувчи
асарлари замирига жо бўлган хал\она бадий тафаккур
мыъжизаларини тад\и\ этиш ҳам ана шу эзгу ишларнинг узвий
бир «исмидир. +аршибоева Шоиранинг магистрлик диссертацияси
ҳам То\ай Мурод ижоди самараси «От кишнаган о\шоим»
асарини синтактик жиҳатдан, гап булаклари бййича таҳлил
«илиш, ёзувчининг хал\ тилидан асар мобайнида ижодий
фойдаланганлигини баҳоли «удрат ырганишга ба\ишланганлиги
билан долзарблик касб этади.

Ушбу магистрлик диссертация ишида содда гап
синтаксисининг шозирги ызбек адабий тили жараёнидаги
кыриниши, гап булакларнинг даражаланиши, уларнинг ырганилиш

тарихи, гап былакларнинг гапдаги роли, эга билан кесимнинг гапдаги ащамияти, ырни, уларнинг ифодаланиши ырганилган.

Ишнинг боблари ва ыыйилган масалалар бир-бири билан ызаро бо\ланган, танланган мавзу мощиятини тыли= =амраб олади. Ишдаги айрим кузатишлар ва хулосалар эътиборга молик. Мазкур магистрлик диссертациясини тыли= якунланган иш, деб щисоблайман ва уни щимояда “аъло” бащо билан бащолашга тавсия этаман.

Таъризчи:

проф. Х.Жыраев